

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT
VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT
INSTITUTI**

SEVARA MAHMUDOVA

JA'HON ADABIYOTI

FANIDAN MUSTAQIL TA'LIM UCHUN

METODIK TAVSIYALAR

(uslubiy qo'llanma)

Toshkent - 2021

УДК: 82-1)-9
ББК: 83.3 (4/8)
М-37

Mazkur uslubiy qo'llanma jahon adabiyoti fanidan talabalarning mustaqil ta'lim olishlarini samarali tashkil etish maqsadida tuzilgan. Undan fanni mustaqil o'zlashtirish bo'yicha tavsiyalar, topshiriqlar, keyslar, test savollaridan namunalar, adabiyotlar ro'yxati, mustaqil ish mavzulari o'rin olgan.

Ushbu uslubiy qo'llanma san'at va madaniyat instituti ta'limi uchun mo'ljallangan.

Tuzuvchi:

Sevara Irisaliyevna Mahmudova – O'zDSMI o'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Taqrizchilar:

Latofat Toshmuhamedova - O'zJOKU o'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Shoira Ramazanova - O'zDSMI jahon tillari va adabiyoti kafedrası dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Badiiy, o'quv-uslubiy kengashining 2020-yildagi 27-fevral 7-sonli majlisi qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

JAHON ADABIYOTI FANIDAN MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISHGA DOIR METODIK TAVSIYALAR

Jahon adabiyoti fanini o'zlashtirishda talaba darsdan tashqari bajaradigan mustaqil ishlar muhim ahamiyatga ega. Ular bir qancha tarkibiy qismlardan tashkil topadi:

1. Badiiy matnlarni mustaqil o'qib o'rganish. O'qish uchun tavsiya etiladigan badiiy asarlar ro'yxati har semestrning boshida beriladi. Ularning talabalar tomonidan o'zlashtirilishi amaliy mashg'ulotlar, individual muloqotlar, nazoratlar davomida tekshirib boriladi.
2. Bibliografik ish darslik, spravochnik, maxsus adabiyotlar bilan mustaqil ravishda tanishishdir. O'qituvchi manbalarni tavsiya etadi, talaba esa amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rishda, fanning bo'lim va mavzularini o'zlashtirishda ularni mustaqil ravishda o'rganadi.
3. Terminlarni o'zlashtirish. O'qituvchi fanni o'qitish davomida maxsus atamalar bilan maqsadli va izchil ravishda tanishtirib boradi, ammo talaba terminologiyaning asosiy qismini mustaqil o'zlashtirib borishi lozim, busiz, albatta adabiyotni ilmiy ravishda o'rganishi mumkin emas. O'qituvchi muhim sanalgan manbalarni tavsiya etadi. Masalan, "Adabiyotshunoslik lug'ati", "Adabiyot nazariyasi", "Adabiy turlar va janrlar". Talaba esa tahsil olish davomida ular bilan mustaqil ravishda tanishib boradi.
4. Badiiy asarga individual, ijodiy yondashuvni rivojlantirish. Adabiyotni o'rganish o'qigan asarga nisbatan emotsional, shaxsiy munosabatni shakllantiradi. Bunday munosabatni qo'llab-quvvatlash, talaba o'zining fikrini bildirishiga imkon yaratish lozim.

Mustaqil ta'lim quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

1. Individual shug'ullanish (uy vazifasini tayyorlash);
2. Ma'ruza konspektlarini tayyorlash, og'zaki javob berishga tayyorlanish.
3. Testlarni yechish.
4. Yakuniy nazoratga tayyorlanish.

5. Nazorat ishlarini bajarish.

6. Referat, mustaqil ish, esselar, idrok xaritalarini tayyorlash.

Mustaqil ta'lim individual shaklda yoki talabalar guruhi bilan amalga oshirilishi mumkin. Bunda mustaqil ishning maqsadi, hajmi, mavzusi, murakkablik darajasi, talabalarning malakasidan kelib chiqiladi.

Talabalar mustaqil ta'limining mohiyati maxsus pedagogik konstruktsiya sifatida unda qo'yilgan o'quv ma'rifiy maqsadlardan kelib chiqib belgilanadi. Shunday ekan, mustaqil ta'lim talabaning o'quv materialni o'zlashtirishidagi mustaqil faoliyatigina bo'lib qolmay, o'qituvchi tomonidan tashkil qilinuvchi, ta'limning o'ziga xos shartlariga asoslangan shaklidir.

KIRISH NAZORATI

Fan bo'yicha mashg'ulotlar boshlanar ekan talabaga darsdan tashqari og'zaki yoki yozma tarzda quyidagi berilgan savollarga javob berish tavsiya etiladi.

1. Mutolaaga munosabatingiz qanday? Yoqtirgan badiiy asarlaringizni sanang.
2. Badiiy adabiyotni ilmiy jihatdan o'rganishni noprofessional kitobxon uchun zarur deb bilasizmi?
3. Sizning kasbiy faoliyatingizda adabiyotga oid bilimlar qanchalik zarur deb o'ylaysiz?
4. Jahon madaniyati tarixida adabiyot qanday o'rin tutadi?
5. Adabiyotga oid qanday uslub va turlarni bilasiz?
6. Zamonaviy adabiyotga oid tadqiqotlar siz uchun qanchalik dolzarb?

Kirish nazorati fanni o'qitishdan avval o'tkaziladi. Bunday nazoratni o'tkazish:

- A) talabaning bazaviy bilim darajasini aniqlash;
- B) ushbu bilim sohasi bilan talaba qanchalik tanish ekanligini;
- S) noaniq va yolg'on tasavvurlarni aniqlash;
- D) ta'lim jarayonini tahrir qilish;
- E) tahsilga tayyorgarlik va intizomlilik darajasini belgilab olishga yordam beradi.

Ushbu savollarga erkin tarzda javob beriladi. Javoblar baholanmaydi, lekin o'qituvchi javoblar natijasini ta'limni tashkil etishda inobatga oladi.

TALABALAR MUSTAQIL TA'LIMI UCHUN TOPSHIRIQLAR

MAVZU: ANTIK ADABIYOT

1- TOPSHIRIQ. Qanotli iboralarni izohlang, qadimgi afsonalardagi ular bilan bog'liq sujetlarni eslang.

Avgiy otxonalari, Ariadna iplari, Axilles tovon, Gordiy tuguni, Ssilla va Xaribda o'rtasida, tantal azoblari, Narsiss, Odisseya, olimpona xotirjamlik, Pigmalion va Galateya, sizifona mehnat, janjal olmasi, Pandora qutisi, Amur o'qlari, titanlarcha kurash, gigant o'lchov, panik qo'rquv, edip kompleksi iboralarini izohlab bering.

Topshiriqni bajarish tartibi:

1. Ibora qaysi afsonalar asosida yuzaga kelganini aniqlang.
2. Ibora qanday ma'noni anglatishini tushuntiring.
3. Ibora qanday kontekstda qo'llanishini aniqlang.

2 -TOPSHIRIQ.

Qadimgi yunonlarning asosiy ma'bud va ma'budalarini sanab bering. Ular bilan bog'liq mifologik sujetlarni eslang

Topshiriqni bajarish tartibi:

1. Yunon miflarini o'qib chiqing.
2. Miflardagi ma'bud va ma'budalarga xarakteristika bering

Ma'budlarning mifologik sujetlarlardagi o'rnini tushuntiring

3- TOPSHIRIQ

Xomerning "Iliada" dostoni voqealarigacha tarixda yuz bergan va "Iliada" da hikoya qilingan hodisalar haqida so'zlab bering.

4 -TOPSHIRIQ

"Iliada" dostonining asosiy qahramonlari bo'lgan Axill va Gektorga qiyosiy xarakteristika bering. Masalan, Axill "olijanob", "qo'rqmas", "mashhur", "qisqa umr ko'ruvchi" kabi.

5 -TOPSHIRIQ

Yunon va Rim ma'budlarini qiyoslab tavsiflang. Mifologiyaning yunon va rim adabiyotida tutgan o'rni haqida fikrlab, misollar bilan tushuntiring.

6- TOPSHIRIQ

1. Qadimgi Yunoniston afsonalaridan 5- 6 tasini o'qib chiqing
2. Dunyo va ma'budlarning yaralishi haqidagi afsonalar matnini ajratib oling
3. Xomer masalasining javobi nimadan iborat? Savolga javob tayyorlang.
4. Sofokl va Evripid ijodi haqida ma'lumot tayyorlang.
5. Sofoklning "Shoh Edip" tragediyasini o'qing. Asarning badiiy o'ziga xosligini izohlab bering.

ANTI-K ADABIYOTDAN KEYSLAR

"Olimp ma'budlari" keysi

Keys bayoni: Qadimgi yunon afsonalaridagi olamning o'n ikki hukmroni deya tasvirlangan bir qancha ma'bud va ma'budalar abadiy barhayotlik bag'ishlovchi nektar ichib, oltin tovoqlarda tortilgan amvroziya taomini yeb, go'zal parilarning raqs va navolariga mast bo'lib, Olimp tog'i cho'qqisidagi muhtasham qasr-qal'alarda umrbod nash'u namo suradilar, deb tasvirlanadi. Salobat, go'zallik, ulug'vorlik, baquvvatlik va abadiy barhayotlik barcha ma'budlarning asosiy xislatlaridir. Ammo foniy bandalar – oddiy insonlarga xos birtalay yaxshi-yomon ehtirosalar bularga ham begona emas. Maishatbozlikka, ishratparastlikka ular, ayniqsa, juda o'ch bo'lishadi. Arzimagan narsalar ustida achchiq-tiziq gaplarga borish, urish-janjallar ko'tarish ham ular hayotida tez-tez uchraydigan hodisadir.

Keys savoli: qadimgi miflarda ma'budlar nega aynan shunday tasvirlangan? Buning sababalarini ko'rsating.

"Afsonaviy urushning boshlanishi" keysi

Keys bayoni: Rivoyatlarning hikoya qilishicha, Troya shahzodasi Paris Sparta podshohi Menelayning uyiga mehmon bo'lib keladi. Menelay Parisni izzat-ikrom bilan qarshi olib, uning sharafiga hashamatli ziyofatlar beradi, bazmlar uyushtiradi. Shu bazmlarning birida Paris mezbonning rafiqasi Yelenani uchratib, uning husn-

jamoliga shaydo bo‘lib qoladi. Parisning qaddi-basti, ustidagi ajoyib sharq liboslari Yelenani ham maftun etadi. Kunlardan birida Menelay uzoq safarga ketganida, Paris Yelenani yo‘ldan urib, allaqancha mol-dunyolar bilan birga uni o‘z yurtiga olib qochadi. Safardan qaytib kelgan Menelay mehmonining ko‘rnamakligidan, rafiqasining xiyonatidan nomus alamida, iztirob qiynog‘ida azob chekadi va raqibidan qasos olishga ahd qiladi. Menelayning murojaatiga ko‘ra butun Yunon o‘lkasidan to‘plangan podshohlar alamdiydaning akasi, Miken podshohi Agamemnonni sarkarda ko‘tarib, bir qancha kemalarda Troya ustiga bostirib boradilar. Afsonalarda hikoya qilingan Troya yunon urushi shunday boshlanadi.

Keys savoli: urush boshlanishiga bu sabab bo‘la oladimi? Urushning boshqa sabablarini topishga harakat qiling. Paris va Yelena hatti-harakatlariga baho bering. Yelenaning xiyonatini qanday baholaysiz? Parisni-chi?

“Xomer masalasi” keysi

Keys bayoni: Homer dostonlarini chinakam ilmiy asosda tekshirish ishlari faqat XVII asr boshida fransuz ruhoniysi Fransua d’Obinyak tashabbusi bilan boshlandi. Bu odam o‘zining 1615 yilda bosilib chiqqan “Iliada” haqida dissertatsiya” degan kitobida “Iliada” dostoni yolg‘iz bir kishining asari emas, balki Troya urushi haqida to‘qilgan, ammo bir-biri bilan mahkam bog‘lanmagan, turli-tuman mustaqil qo‘shiqlarning yig‘indisidan iborat bir asardir, Homerning tarixiy shaxs ekanligi ham juda shubhali, to‘g‘rirog‘i, shu qo‘shiqlarni ijro qiluvchi birmuncha “homerlar”, ya’ni so‘qir rapsodlar bo‘lgan, xolos, deganga o‘xshash fikrlarni birinchi marta maydonga tashlaydi.

Keys savoli: bu masala yuzasidan sizning fikringiz qanday? Bu dostonlar bir muallifniki bo‘lishi mumkinmi?

“Qirg‘iy bilan bulbul” keysi

Keys bayoni: Qadimgi yunon shoiri Hesiodning bu “Qirg‘iy bilan bulbul” masali quyidagicha bayon qilinadi:

Kunlardan birida balandparvoz qirg‘iy xushnavo bulbulni tutib oladi-da, o‘tkir tirnoqlarini uning bag‘riga botirib, bulutlarga tomon ko‘tarib ketadi. Bechora

bulbul alamning zo‘ridan beto‘xtov chiyillar ekan, mag‘rur qirg‘iy fig‘on chekayotgan dilporaga qarab bunday deydi: “Ey sho‘rlik qushcha, nega bunchalik chiyillaysan? Axir senga qaraganda men allaqancha kuchliman-ku! Qanchalar fig‘on cheksang ham, baribir seni istagan yeringa olib boraman, keyin xo‘rak qilsam ham, qo‘yib yuborsam ham – ixtiyor o‘zimda; faqat tentaklargina zo‘ravonlar bilan bahslashadilar: qo‘llaridan hech narsa kelmaydi, musibatlariga yana musibat qo‘shiladi”.

Keys savoli: Xesiodning bu masalida qanday fikr ilgari surilgan? Bu masal hozir ham aktualmi?

“Mehnat rohatmi yoki kulfat?” keysi

Keys bayoni: Xesiodning “Mehnat va kunlar” dostoni insonning og‘ir taqdiri, musibatlarga to‘la hayoti haqidagi afsonalar bilan boshlanadi. Umuman olganda, shoirning inson qismati to‘g‘risidagi tushunchalari nihoyatda g‘amgindir. Uning aytishicha, ma‘budlar odam bolasiga rahnamolik qilmaydilar, mehr-shafqat ko‘rsatmaydilar, aksincha, inson naslining boshiga muttasil ofat, balo yog‘dirib keladilar. Hatto mehnatning o‘zi ham Zevs tomonidan yuborilgan bir zahmat, kulfatdir.

Keys bayoni: Xesiodning fikriga qo‘shilasizmi? Mehnat haqiqatan ham inson uchun zahmat, kulfatdan boshqa narsa emasmi?

“Pandora afsonasi” keysi

Keys bayoni: Hesiod “Mehnat va kunlar” asarida hikoya qilishicha, ma‘budlar sultoni Zevs inson naslini quritib yuborish maqsadida yer yuzidan olovni ko‘taradi; odamzotning murabbiysi Prometey Olimp hukmronining rejalarini buzib, ma‘budlar makonidan ularga yana olov keltirib beradi. Prometeyning qilmishidan qahrlangan Zevs sarkash titanni qattiq jazolash bilan qanoatlanmay, odamzoddan ham intiqom olishga qasd qilib, Hefestga bir go‘zal qiz yasashni buyuradi: temirchilar ma‘budi tuproq bilan shunday bir zeboni yaratadiki, uning husni Olimp malikalaridan qolishmaydi.

Bu sohibjamolga ma'budlar keyin jon berib, har qaysilari unga biron buyum yoki xislat hadya qiladilar: Afina qimmatbaho libos kiydiradi, Afrodita husniga yana husn qo'shadi, Hermes ayyorlik, tilyog'lamalikni o'rgatadi va boshqalari ham o'z tabiatlarida bo'lgan biron xulq va ehtirosni baxsh etadilar. Shundan so'ng ma'budlar bu husnkorga Pandora degan nom berib, Zevsning amri bilan Prometeyning og'asi Epimeteyga yuboradilar. Zevsdan hech qanday in'om olmaslik to'g'risida Prometeyning qayta-qayta ogohlantirishlariga qaramay, Epimetey Pandoraning karashma va g'amzalariga bardosh berolmay unga uylanadi. Zevs katta bir idishga butun ofatlarni solib, Pandora bilan berib yuborgan edi. Idishning ichiga nima borligiga qiziqib, Pandora bir kun uning og'zini salgina ochganida hamma ofat balolar yer yuziga yoyilib ketadi.

Keys bayoni: ushbu "Pandora" rivoyatini qanday tushundingiz? Shunga o'xshash yana qanday rivoyatlarni bilasiz?

"Bashariyat tarixi" keysi

Keys bayoni: Hesiodning bashariyat tarixi haqidagi ta'limoti ham xuddi Pandora bilan Prometey afsonasi singari nihoyatda mudhish, nihoyatda qayg'ulidir. Shoir yer yuzida yashagan insonlarni besh avlodga bo'ladi, bu avlodlarning yashash tarixi asta-sekin razolatga yuz tutishdan iboratdir; eng birinchi avlod yer tarixining oltin davrida yashaydi; ular mehnat va azob-uqubatning nimaligini bilmaydilar, tunu kun o'yin kulgida, farog'atda o'tadi, hayotning butun noz-ne'matlarini bu baxtiyor odamlarga tabiatning o'zi yetkazib beradi, ular bir-birlariga yomonlik qilmasdan totuvlik bilan hayot kechiradilar, o'lganlarida ham bamisoli uyquga ketgandek ohistagina dunyodan o'tadilar. Biroq oltin davr abadiy davom etolmaydi, uning o'rnini kumush davr egallaydi. Bu davrda yashagan avlodlar oldingilar singari baxtiyor bo'lmasdan bebosh bo'ladilar, ma'budlarga ixlos qo'ymaydilar, shu sababli Olimp hukmroni ulardan qahrlanib yer qa'riga kiritib yuboradi. Kumush davridan keyin mis davri boshlanadi. Bu davrda yashagan odamlar sira ham oldingilarga o'xshamagan, mehr-shafqatdan bexabar, jangbozlikdan, qon to'kishdan boshqa narsani bilmagan

kishilar edi. Biroq qanchalik yovuz, qanchalik zolim bo'lishlariga qaramay, bular ham o'limdan qochib qutilolmaydilar. To'rtinchi davr – mardiy maydonlar, bahodirlar davri; ular o'zlaridan oldin o'tganlarga qaraganda rahmdil, muruvvatli edilaru, ammo bu azamatlarning ko'plari Troya ostonalaridagi qonli janglarda, dengiz to'lqinlarida qirilib ketadilar. Hesiod o'z zamonasini yaramas ehtiroslar, pastkashliklar, zulm hamda adolatsizliklar avj olgan beshinchi davrga kiritadi va bu davrni temir davri deb ataydi.

Keys savoli: Hesiodning fikriga munosabat bildiring. Uning o'z zamonasi va o'tmish haqidagi salbiy fikrlariga qo'shilasizmi? Inkori yoki tasdiqlangizni izohlab, asoslab bering.

“Xermes “ keysi

Keys bayoni: Zevsning parizod Mayyadan tug'ilgan o'g'li Xermesga – ma'budlar jarchisi, mardalar ruhini oxiratga kuzatib boruvchi, sayyohlar va savdogarlar himoyachisi, badantarbiya ishlarining rahnamosi deb ta'rif beriladi.

Keys savoli: Xermes tasvirlangan miflarni eslang, uni nega bunday ta'riflanganini tushuntiring. Uni tasvirlang.

Mini keys: “Shoh Edip” tragediyasi.

1. Asar qanday voqea tasviri bilan boshlanadi?
2. Lay kim? U nima uchun o'g'lini o'ldirmoqchi bo'ladi?
3. Edip kim? Edip so'zining ma'nosi nima?
4. Kohin Edipga nimani bashorat qiladi?
5. Sfinks topishmog'i va uning javobi qanday?
6. Fiva shahriga kelgan balolarning sababi nimada?
7. Kohin Tiresiy va Edip o'rtasidagi suhbat nima bilan tugaydi?
8. Chorrahadagi to'qnashuv aslida qanday yuz bergan edi?
9. Fojia qanday yakun topadi?
10. Sofokl fojiada qanday fikrni ilgari suradi?

ANTI-K ADABIYOTDAN TEST SAVOLLARI

1. Avgust davrining ulug' shoiri Publiy Vergiliy Maron asarlari berilgan qatorni toping.

- a) «Qasidalar», «Epodlar», «Satiralar»;
- b) «Bukolikalar», «Georgikalar», «Eneida»;
- c) «Sevgi san'ati», «Qasidalar», «Eneida»;
- d) «Metamorfozalar», «Sevgi san'ati», «Epodlar».

2. Kvint Goratsiy Flakk asarlari berilgan qatorni toping.

- a) «Epodlar», «Satiralar», «Qasidalar», «Nomalar»;
- b) «Bukolikalar», «Qasidalar», «Sevgi san'ati», «Nomalar»;
- c) «Qahramon ayollar», «Georgikalar», «Nomalar», «Eneida»;
- d) «Iliada», «Epodlar», «Qasidalar», «Metamorfozalar».

3. Publiy Ovidiy Nazon asarlari berilgan to'g'ri javobni belgilang.

- a) «Odisseya», «Qasidalar», «Bukolikalar»;
- b) «Shox Edip», «Epodlar», «Sevgi san'ti»;
- c) «Metamorfozalar», «Sevgi san'ati», «Maktublar»;
- d) «Epodlar», «Qasidalar», «Nomalar».

4. Yunonlarning Eney haqidagi afsonasini Rimliklar nima uchun rasmiy ravishda qabul qiladilar?

- A) yunon madaniyatini sevganliklari sababli;
- B) Eney Troya bahodiri bo'lganligi sababli;
- S) Rim xalqining troyaliklardan tarqalganligi uchun;
- D) Eney ma'budlar avlodidan bo'lganligi uchun.

5. Milliy mavzuda yozilgan rim tragediyasi qanday atalgan?

- A) togata B) protekstata S) palliata D) idilliya

6. Ikkita yunon komediyasidan bitta rim komediyasini yaratish usuli qanday ataladi?

- A) gekzamet B) epigrama S) kontaminatsiya D) proskripsiya

7. Oktavian Avgust zamonasida Rimda qanday adabiy to'garaklar mavjud edi?

- A) Metsenat, Messala, Pollion to'garaklari;
- B) Metsenat, Katull, Lukretsiy to'garaklari;
- S) Vergiliy., Ovidiy, Messala to'garaklari;
- D) Avgust, Sitseron, Metsenat to'garaklari.

8. "Eneida" dostonining bosh g'oyasi nima?

- A) yunon va Rim xalqining do'stligini kuylash;
- B) Eney yunonlarning mifologik qahramoni Axillesga tenglash;

- S) Rim davlatining ulug'ligini madh etish;
- D) Rim tarixini yaratish va kuylash;

9. Rivoyatlarga ko'ra Eney kim bo'lgan?

- A) Troya shohi Priamning jiyani, Anxis va Veneraning o'g'li bo'lgan;
- B) Itaka shohi Odisseyning jiyani, Anxis va Veneraning o'g'li;
- S) Axillesning do'sti, ma'buda Yunona va Patroklning o'g'li;
- D) Ma'buda Fetida va Menelayning o'g'li

10. Ovidiyning “Metamorfozalar” asari nechta rivoyatdan iborat?

- A) 100 ta B) 150 ta S) 200 ta D) 250 ta

FOYDALANISH UCHUN ADABIYOT:

1. Alimuhamedov N. Antik adabiyot tarixi.- T.: O'qituvchi, 1975.
2. Hamdamov.U, Qosimov A. Jahon adabiyoti. -T.: 2017
3. Mahmudova S. Jahon adabiyoti. -T.: 2018
4. Tronskiy I.M. Istoriya antichnoy literaturi. – M.:Visshaya shkola, 1988.
5. Gilenson.B.A. Istoriya antichnoy literaturi. – M.: “ Flinta”, 2012
6. Kun N.A. Qadimgi Yunoniston afsona va rivoyatlari.- T.: Davrpress, Q.Mirmuhamedov tarjimasi.1-kitob, 2013; 2-kitob, 2014.
7. Arastu. Poetika. Axloqi kabir. Ritorika. – T.: Yangi asr avlodi, 2004.
8. Boltaboyev H., Mahmudov M. Adabiy estetik tafakkur tarixi.- T.: Mumtoz so'z, 2013.
9. Mahmudov M. Homer olami. “Sharq yulduzi” jurnali, 6-son, 2007.
- 10.Komilov N. Tafakkur karvonlari. -T.: “Sharq” nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, 2011.
11. Ibragimov.R. Homer. Iliada . Taqdir oldidagi ojizlik.www.kh-davron.uz
- 12.Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. - T.: Akademnashr, 2010.
13. Quronov D., Rahmonov B. G'arb adabiy-tanqidiy tafakkuri tarixi ocherklari. O'quv qo'llanma-xrestomatiya. -T.: Fan, 2008.

BADIIY ADABIYOT:

1. Homer. Odisseya.-T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-manbaa ijodiy uyi, 2012.
2. Homer. Iliada.- T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1988.
3. Ellada qahramonlari. – T.: Yosh gvardiya, 1976.
4. Ilyosov Y. So'g'diyona. – T.: “Sharq” nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, 1994.
5. Konfutsiy. Muhokama va bayon. – T.: Yangi asr avlodi, 2010 – 110-b.
6. Ezop masallari. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2010, 212-b.

7. Все шедевры мировой литературы в кратком изложении. Сюжеты и характеры. Зарубежная литература древних эпох, Средневековья и Возрождения. Энциклопедическое издание. – М.: «Олимп», АСТ, 1997, 848 с
8. Sofokl. Shoh Edip.- T.: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1979.(Asqad Muxtor tarjimasi)
9. Esxil. Zanjirband Prometey. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1985. (Asqar Mahkam tarjimasi)
- 10.Evripid. Medeya. – T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1978. (Asqar Mahkam tarjimasi).
- 11.“Haqiqat manzaralari. 96 mumtoz faylasuf. Taqdirlar, hikmatlar, aforizmlar”. -T.: Yangi asr avlodi, 2002, 371-b.
12. Plutarx. Saylanma. (U.Otajon va Z.A’lam tarjimasi). –T.: Yangi asr avlodi, 2006.
- 13.Sitseron. Notiqlik san’atidan ikki risola. –T.: Yangi asr avlodi. 2008.
- 14.Drimba O. Ovidiy.- Buxarest.: Meridian. 1967.
15. Rim adabiyoti bo‘yicha xrestomatiya. Oybek tarjimasi. -T.:1940.
- 16.Jalilov S. Bobur va Yuliy Sezar. –T.: Yangi asr avlodi, 2001.
17. Horatsiy. Sochineniya. – M.: 1970.
18. Mahmudova S, Sayfullayeva A. Antik adabiyot. Majmua. – T.: 2015.

Elektron adabiyot

1. [www. goldlit.ru](http://www.goldlit.ru)
2. www. livelib.ru
3. . www.wikipedia.org
4. www. Wisdoms.ru
5. www.kinopoisk.ru
6. www.englishstory.ru
7. .www.lib.ru
8. www.khurshiddavron.uz

MAVZU: YEVIROPA UYG‘ONISH DAVRI ADABIYOTI

- 1- **TOPSHIRIQ.** Quyida berilgan mavzularning biriga 5 -7 minutlik nutq tayyorlang
 - 1.Dante hayoti va ijodi.
 - 2.Shekspir komediyalari.
 - 3.Fransua Rable ijodi.
 - 4.Migel de Servantes hayoti va ijodi.
- 2- **TOPSHIRIQ.** Quyidagi she’rlarni yod oling va ifodali o‘qib bering.

1. Franchesko Petrarka sonetlari
2. Shekspir sonetlaridan biri

3- TOPSHIRIQ. Don Kixot va Gamlet obrazlarini qiyoslang. Ularni fojiali yakunga olib kelgan sabablarni izohlang

4- TOPSHIRIQ. Shekspirning “Gamlet” tragediyasini o‘qib chiqing va uni quyidagi reja bo‘yicha tahlil qiling.

1. Gamletning inson va uning imkoniyatlari haqidagi tasavvurlari qanday?
 2. Gamlet haqida Ofeliya, Klavdiy, Laert, Goratsio, Fortinbras qanday fikr bildiradilar?
 3. Gamlet hayotdagi nogahoniy voqealarga qanday munosabat bildiradi?
 - A) Gertrudaning shoshilinch turmushga chiqishiga;
 - B) Otasining Klavdiy tomonidan o‘ldirilishiga;
 - S) Vittenbergdagi do‘stlarining sotqinlik qilishiga.
 4. Gamletning Ofeliya bilan munosabatlari qanday bo‘lgan? Ofeliyaning taqdiri fojiali tugashida Gamlet qanchalik aybdor?
 5. Gamlet otasining o‘limi uchun qanday qasos olishni maqsad qiladi? Uning harakatlari Laertnikidan nimasi bilan farq qiladi? “O‘lish yoki qolish” monologining mohiyati nimada? Nima uchun biz passiv harakat qiluvchi Gamletni tezkor faoliyat yurituvchi Laertdan afzal qo‘yamiz?
 6. Gamlet nimalar haqida o‘ylaydi? Qanda xulosalarga keladi? Uning fikrlari nimasi bilan ahamiyatli?
 7. Gamletning nozik tomonlari nimada ko‘rinadi? U yovuzlikni yengish uchun yolg‘iz uning harakati yetmasligini tushunadimi? Gamlet qaysi imkoniyatni yetarli baholay olmadi va undan foydalanmadi?
- 5 -TOPSHIRIQ.**Shekspirning muallifligiga oid shubhalarning kelib chiqishiga nimalar sabab bo‘ldi?

Quyidagi fikrlar bilan tanishing, ularda muammo qaysi nuqtai nazardan o'rganilayotganligini tushuntiring.

1) Ulug' shoir va dramaturgning tarjimai holiga doir ma'lumotlar **juda kam saqlangan**.


2) Vilyam dastlab mahalliy «Grammatika maktabi» da o'qiydi. U yerda asosan lotin tili o'rgatilib, sxolastik logika va ritorikadan qisqacha tushuncha berilar edi.

3) Shekspir ijodi va hayotini o'rganuvchilar uning biografiyasida 1585-1592 yillar, ya'ni 7 yillik hayoti haqida hech qanday ma'lumotlar yo'qligini aytishadi. Tadqiqotchilar bu yillarni "yo'qotilgan yillar" deb ataydilar va bu yillarda Shekspirning hayoti qanday kechganligi haqida turli xil fikr va qarashlarni ilgari suradilar. Ammo bu qarashlarning birortasi ham faktlar bilan o'z tasdig'ini topgan emas.

4) XVIII asr oxiridagina g'arbda "Shekspirchilik masalasi" deb atalgan masala kelib chiqadi. 1772-yilda Gerbert Lorens Shekspir nomidagi pyesalarni filosof Frensis Bekon yozgan degan fikrni aytadi

6 -TOPSHIRIQ. Shekspir dahosininig yuzaga chiqishiga ta'sir etuvchi omillarni tasniflashga doir topshiriq

"Shekspirni buyuk dramaturg bo'lib yetishishidagi omillar" chizmasini tugallang.



KEYS TOPSHIRIQLARI

“Hamlet qanday obraz?” keysi

Keys bayoni: Gamletga berilgan ta’rif-tavsiflar jamlansa, “Gamlet o‘zi kim?” degan savolga javob berolmay qolasiz. Biri Gamlet – jasur shahzoda, olim, mutafakkir desa, boshqa biri Gamlet – badbin va xayolparast deydi. Yana birovlar tasavvurida Hamlet xudbin, qat’iyatsiz; norozi va notavonlar peshvosi qiyofasida ko‘rinadi. Uilson Noyt degan bir olimga ko‘ra, Klavdiy “sog‘lom ma’naviy hayot” sohibi, ham o‘ziga, ham atrofidaulariga ishonadigan, faoliyatda erkin, yaratuvchi hukmdor – “buyuk bir inson”. Hamlet dunyodagi qora kuchlarning timsoli. Makbet singari Hamlet ham “yovuzlik g‘oyasi va o‘limning kuch-qudratini ifodalovchi qahramon”. Albatta, bunaqa gap-so‘zlar tanqidga ham arzimaydi. Hamlet nomiki, yovuzlik g‘oyasi va o‘lim bilan bog‘lansa, ezgulik va haqiqat xususida o‘ylashga hojat qolmaydi. Qanchadan-qancha shoir, olim, adib va aktyor “Hamlet – bu men...”, “Hamlet – bu biz...”, “Hamletning fojiasi – bizning fojiamiz...” deyishgan.

Keys savoli: Sizningcha Hamlet kim? Unga tavsif bering.

“Daniya nega zindon?” keysi

Keys bayoni: Mashhur “Utopiya” kitobining muallifi angliyalik Tomas Mor zolim hukmdor to‘g‘risida bahs yuritib, “O‘zgalar oh-voh chekib yig‘layotgan bir paytda dabdaba va huzur-halovatda kun kechirish – bu davlatga emas, zindonga qorovul bo‘lish demak”, deb ta’kidlaydi. Hamlet esa “Daniya – zindon” deydi. Rozenkratsning “Unda butun dunyo – zindon”, degan fikriga javoban aytadiki, “Balli, ko‘plab qamoqxonalari, chohlari bo‘lgan g‘aroyib bir zindon, lekin eng quling o‘rgilsini – shu Daniya”.

Keys savoli: Hamlet haqlimidi shunday deyishga? Javobingizni asoslab bering

“Frensis Bekonmi yoki Uilyam Shekspir?” keysi

Keys bayoni: Gamlet rolini ijro etgan, XVII asrning oxirlarida yozuvchining ijodiga doir materiallar to‘plagan mashhur aktyor Tomas Betterton, shuningdek, Shekspirning birinchi biografi Nikolas Rou ham uning mualifligiga shubha qilmaydilar. Faqat XVIII asr oxiridagina G‘arbda “Shekspirchilik masalasi” deb atalgan masala kelib chiqadi. 1772-yilda Gerbert Lorens Shekspir nomidagi pyesalarni filosof Frensis Bekon yozgan degan fikrni aytadi. 1857-yilda amerikalik Deliya Bekon Shekspir haqida kitob yozib, unda Shekspir qalamiga mansub bo‘lgan asarlarni filosof Frensis Bekon boshliq maxfiy to‘garak a‘zolari ijod qilgan, chunki Shekspir pyesalarida go‘yo aniq individual uslub yo‘q deb isbotlashga urinadi.

Birinchi bo‘lib o‘sha davr teatrlari sahnalarida qo‘yilgan mashhur pyesalarning muallifi haqiqatdan ham Vilyam Shekspirmi degan savolni Jeyms Uilmot qo‘ygan. U ushbu asarlarning haqiqiy muallifi Frensis Bekon degan taxminni ilgari surgan. 1856 yilda esa yana bir AQShlik Deliya Bekon “Shekspir pyesalarinig ochilgan falsafasi” kitobida V. Shekspir asarlarining haqiqiy muallifi faylasuf olim Frensis Bekon deb ochiqdan ochiq ko‘rsatgan.

Bunday ko‘plab da‘volar bilan chiqqanlar harakati “aksilstratfordchilar” (ya’ni, V. Shekspir stratfordlik mashhur adib ekanligi tarafdorlariga qarshilar) nomini olgan 1885 yilda Angliyada F. Bekon jamiyatiga asos solinib, u tomonidan hatto jurnal nashr etishga kirishilgan. 1892 yilda esa xuddi shunday jamiyat AQShda ham tashkil etilgan. “Aksilstratfordchilar” safida Mark Tven va Zigmund Freyd kabi o‘z zamonasining mashhur kishilari ham bo‘lgan.

“Aksilstratfordchilar” F. Bekonning komediya va tragediyalar bitganligini aniq isbotlay olmaganlaridan so‘ng V. Shekspir tomonidan yozilgan ayrim asarlarning muallifi graflar Derbi, Esseks, Oksford, Retlend, hatto qirolicha Yelizaveta bo‘lganligini da‘vo qilishgan

Keys savoli: Bu masalada sizning fikringiz qanday? Frensis Bekon mashhur pyesalar muallifi bo‘lishi mumkinmi? Javobingizni asoslab bering.

“Romeo va Juletta”- ekranda” keysi

Keys bayoni: Shekspirning eng ko‘p ekranlashtirilgan filmi “Romeo va Juletta”dir. Ayniqsa, Italiyada (asar voqealari shu yerda yuz bergani uchunmi?) bu asarga ko‘p bora murojaat etilgan. Ammo “Romeo va Juletta” filmining akademik versiyasini 1957- yilda Renato Kastellani yaratadi. Gollivudda esa bu pyesa asosida rejissyor Robert Uayz “Vestsayd voqeasi” filmini suratga oladi. Bu myuzikl XX asr 60-yillarida eng kassabop filmlardan biri bo‘lgan.

XXI asrga kelib esa rejissyor Lyusiya Murat suratga olgan “Romeo va Juletta”ning yangi talqindagi voqealari Meksikada yuz beradi. Lotin Amerikasida bestsellerga aylangan bu film undan tashqaridagi kinotomoshabinlar orasida mashhur emas. Shekspirning ushbu pyesasi asosida animasion filmlar ham yaratilgan bo‘lib, 2007-yil Yaponiyada yaratilgan “Romio va Yuretta” nomli serial, “Gnomeo bilan Juletta” multfilmi bunga misol bo‘la oladi.

Keys savoli: Bu asarga nega XXI asrda ham ko‘p murojaat qilinmoqda? Bu fojining ekrandagi talqinlarini tahlil qiling. O‘zingiz tomosha qilgan ekran talqini haqida fikr bildiring. Unda badiiy matnga qanday munosabatda bo‘lingan? Rejissor yondashuvi xususida fikringiz qanday?

“Shekspir va Akira Kurosava” keysi

Keys bayoni: Shekspirning “Qirol Lir” tragediyasining eng qiziqarli talqinini yapon rejissyori Akira Kurosava yaratgan. “Ran” (1985) nomli kartinasida Kurosava tragediyani teatrna uslubda talqin qiladi. Shekspir asarlariga xos bo‘lgan shartli konstruksiyalar turli kolliziyalarni samuraylar dunyosiga ko‘chirish va “Busido” deb ataluvchi axloq kodiga asoslangan munosabatlarni aks ettirish uchun juda qulay edi. Kurosavaning “Makbet” asosida “Qonga botgan taxt” (1957) va “Qirol Lir” asosida “Ran” filmlari Shekspir asarlarini ekranlashtirish tarixida muhim o‘rin tutib, hozir ham kino va televideniye ekranlarida namoyish etib kelinmoqda.

Keys savoli: Ushbu kartinalarni topib tomosha qiling. Shekspir asarlarini Kurosava filmlaridagi talqinini o'rganing. Kurosava filmlarining shekspirshunoslar tomonidan qanday baholanganini aniqlang.

“Xamlet monologi” keysi

Keys bayoni: Asarlarining aksariyatida Shekspir shaxs bilan muhit to'qnash kelgan taqdirlarni asos qilib olib inson va olam haqida o'z qarashlarini bayon etdi. Go'yo adib ana shu taqdirlar va qahramonlar orqali bani basharga ezgulik va yovuzlik haqidagi o'z xulosalarini bayon etayotganday, ana shu taqdirlar qiyofasida insonga ulug' iztirobini izhor qilayotganday bo'ldi. Ana shunday qahramonlardan biri Hamletning tilidan Shekspir shunday deydi:

Tirik qolmoq yo o'lmoq, shudir masala!

Qaysi biri bulardan bizga munosib?

Shu dilozor falakning tahqirlariga

Shikoyatsiz-shikvasiz chidab turmoqmi?...

... Yo'qsa, shu kiborlarning jaholatiga,

Hokimlarning jabriga, soxta kibriga,

Shu munofiq muhitning ayyorligiga,

Birovga hasrat ham qilolmaslikka,

Muhabbatning xoru zor ezilishiga,

Mardaklarning ko'zida har qanday himmat

Anoyilik sanalib toptalishiga,

Butun bu razolatga kim chidardi, kim?!

...Bas, fikrimiz shu taxlit qo'rqqolashadi

Va aqlning boshi berk ko'chalarida

So'lib ketar bizdagi jasorat guli...

(Maqsud Shayxzoda tarjimasi)

Keys savoli: Xamletning bu monologini qanday tushunasiz? U Hamlet obrazini, asarning umumiy mazmunini qanchalik ochib bergan?

“Shekspir dahomi?” keysi

Keys bayoni: Yozgan asarlari nari tursin, Vilyam Shekspir degan hoksor, zahmatkash va o‘rtahol bir dramaturg, shoir borligini ham bilmagan kimsalar (hatto qirol saroyi xodimlaridan biri uning familiyasi qanday yozilishini bilmay – Shaxbirt deb yozgan ekan), yurtdoshlarining jahonga dong taratish sabablarini qayoqdan ham tushunishsin? XVIII asr oxirida Shekspir dramalariga muharrirlik qilgan Jorj Stivens yozadi: “Bizning Shekspir haqidagi bor-yo‘q bilganlarimiz shu: u Stratfordda tug‘ilgan, uylangan, farzand ko‘rgan. Londonga borgan, markazda aktyorlikni egallagan. Pyesalar va she‘rlar yozgan. Stretfortga qaytgan. Vasiyatnoma qoldirgan va o‘lgan”

Keys savoli: Tasavvur etingki, tarix bir evrilsayu, to‘rt yuz yil muqaddam Angliyada, xususan, dramaturgning ona diyori Stredfordda yashagan xalq yigirmanchi birinchi asr odamlarining Shekspirga ehtiromini ko‘rsa, jahon ahlining Shekspir dahosi haqidagi fikr-mulohazasini eshitsa – nima bo‘lardi?

“Klassik sujetlar” keysi

Keys bayoni: Shekspir o‘zining mashhur asarlarini yozganda, o‘zigacha mavjud bo‘lgan dramalar, komediyalar, solnoma va rivoyatlar sujetidan foydalanganini hamma biladi. Lekin, shunga qaramasdan, Shekspir asarlari pafosi, badiiy konsepsiyasi, xarakteri jihatidan o‘z davri uchun tom ma’noda yangilik ekanini ham inkor etish mumkin emas. Tolstoy maqolasida Shekspirning «Qirol Lir»iga manba bo‘lgan «eski drama»ning jozibasi Shekspir asaridan ustun qo‘yiladi. Haqiqatan, bu asarning sujet tizimi, nutqi, harakatlari risoladagidek. Barcha dramatik vaziyatlar mantiqiy asosga ega. Voqealar tushunarli. Ushbu asar so‘nggida Lir ham, qizlari ham o‘lmaydilar. Aksincha, keksa Lir qator dramatik vaziyatlardan keyin sevimli kenja qizi Kordeliya bilan birga qolib, murod-maqsadiga yetadi. Zotan, uning maqsadi umrining so‘nggini Kordeliya huzurida tavba-tazarru bilan o‘tkazish edi, vassalom. Shekspir asaridagi Gloster oilasi bilan bog‘liq sujet chizig‘i esa klassik dramada umuman yo‘q. Shu nuqtai nazardan ayni drama yagona sujet chizig‘i, yagona mantiq va maqsadga ega. «Gamlet» va

«Otello»ning klassik (an'anaviy) sujetlariga nisbatan ham shu gapni aytish mumkin.

Keys savoli: Shekspirga ushbu klassik sujet nega kerak bo'ldi?

“Lev Tolstoy va Shekspir” keysi

Keys bayoni: «Jahon adabiyoti» jurnalida 1998 yil noyabr, dekabr oylarida nashr etilgan Tolstoyning «Shekspir va drama to'g'risida» nomli maqolasi Shekspir ijodiga doir ayni masala ko'lamini kengaytiribgina qolmay, murakkablashtirdi ham. 1906 yilda «Russkoye slovo» gazetasida chop qilinganidan so'ng, jahon shekspirshunosligida jiddiy sarosima uyg'otgan mazkur tanqidiy maqola, oradan to'qson ikki yil o'tib, o'zbek adabiyotshunoslarini ham o'ylatib qo'ydi.

Ushbu maqolada Lev Tolstoy Shekspirga xos go'zallik tuyg'usining jo'nligi, Shekspir asarlari estetikasi va etikasi zamirida tor dunyoviy maqsad yotishi («Shekspirning asosiy prinsipi-maqsad bo'lsa, istalgan vositani qo'llash mumkin degan prinsipdir» – Tolstoy); Shekspir asarlarida samimiyatning yo'qligi, buning o'rini hashamdorlik, dabdaba, sun'iylik egallagani; Shekspir dunyoqarashidagi shovinizm bois, uning asarlarida boshqa millatlarga nisbatan noxolis munosabat yetkachilik qilishi va hokazolarni keltirib o'tadi..

Keys savoli: Lev Tolstoyning fikriga qo'shilasizmi? Javobingizni asoslab, misollar yordamida tushuntirishga harakat qiling

O'ylang/ fikr yuriting/ muhokama qiling

“Shekspirda hech bir shaxs o'zining tilida gapirmaydi, balki hamma vaqt jimjimador, g'ayritabiiy til bilan, hech qachon o'zgarmaydigan shekspirona til bilan gapiradi..Shespir asarlari o'zgalardan olingan, har xil qurama lahtaklardan sun'iy ravishda yelimlab yopishtirilgan, biror munosabat bilan o'ylab chiqarilgan asarlardir.Ularning badiiyat va san'atga mutlaqo daxli yo'q” (“Jahon adabiyoti” jurnali 1998 yil, dekabr soni, 150-bet.) Buyuk rus yozuvchisi Lev Tolstoyning fikrlariga qo'shilasizmi? Fikr bildiring.

“Ilohiy komediya” keysi

Keys bayoni: Oʻrta asrlarning oxirgi, Uygʻonish davrining dastlabki ulugʻ shoiri Dantening oʻlmas dostoni “Ilohiy komediya”da shunday bir voqeani uchratamiz. Vergiley hamrohligida jahannam eshigiga yetib kelgan Dante yamyashil maysazordagi kichik bir tepalikning bahavo yorugʻ yerida qadimgi dunyoning mashhur donishmandlarini, shular orasida “donolar ustozlari” – Arastuni koʻradi:

Men koʻrdim donolar ustozin,
Donishmandlar ahli bilan oʻralgan,
Yonboshida Suqrot bilan Aflotun,
Hammalari ulugʻ dahoni qutlar.
Bu yerda dunyoni tasodif degan
Atoqli faylasuf Demokrit bor.

Dante shu yerda antik dunyo va Oʻrta asrning ulugʻ tabiblariga, olimlariga ham duch keladi.

Savol: Dante nima uchun antik dunyo va oʻrta asrning ulugʻ allomalarini ham jahannamda tasvirlaydi?

“Don Kixot ritsarlar haqida” keysi

Keys bayoni: “Oʻzimni donishmand ham deyolmayman. Men faqat insonlarga ular yer yuzida jahongashta ritsarlikning baxtiyor zamonlari barqaror etilishini tilamasdan naqadar yengiltaklik qilayotganlarini tushuntirib qoʻymoqchiman, xolos. Ehtimolki, bizning majruh asrimiz ilgarigi dorilomonlik gashtidan mahrum va unga noloyiqdir. Bunday gasht oʻtmishda, jahongashta ritsarlar davlatni mudofaa qilganlarida, xotin-qizlarni himoya etganlarida, yetim-yesir, gʻaribu gʻurabolarga koʻmaklashganlarida, magʻrurlarni jazolab, moʻminlarni siylaganlarida haq va barqaror edi. Hozirgi ritsarlar muqaddas sovutlarni ipagu barqutga almashtirganlar” deydi Don Kixot.

Keys savoli: Ritsarlik oʻzi nima? Don Kixot nega bunday fikr bildirayapti? Siz uning fikriga qoʻshilasizmi?

“Telbanamo donishmand” keysi

Keys bayoni: Tabiat Don Kexanoni aslida oqil qilib yaratgan. Biroq keksayganda ritsarlik “allergiya”siga yo‘liqib, qalbiyu ko‘zini tuman qopladi. Muallif tomonidan achchiq istehzoyu satirik pafos asosida munosabat bildirilgan ritsarlik udumlariga qat’iy, shu bilan birga, ko‘r-ko‘rona amal qilib, o‘ziniyu boshqalarni bekordan-bekorga qiynadi, ko‘p tashvishga qo‘ydi. O‘qigan romanlari bu insonga faqat grafu grafinya uchun ko‘ngilochdi tomoshalar manbai bo‘lmoqqa, kulgi, masxara bo‘lmoqqa yaradi, xolos. Don Kixotning yaxshiligi jabrini totgan – aynan ritsarning aralashuvi xo‘jayini tomonidan qasdma-qasd ravishda battarroq kaltaklanishiga olib kelgan Andres ismli bola eskilikka, donkixotcha mahdudlikka qarata shunday deydi: “Olamdagi barcha jahongashta ritsarlar bilan birgalikda gumdon bo‘linglar!”

Keys savoli: Don Kixot qanday qahramon? Servantes uni nega bunday tasvirlagan? Donkixotchilik deganda nimani tushunasiz? Don Kixotcha mahdudlik nima?

Shekspir hayoti va ijodi mavzusiga oid test savollari

1. Shekspir asarlari qahramonlari va pyesa nomlarini juftlang.

1	Фортинбрас		A	Xamlet	
2	Yago		B	Otello	
3	Sheylok		C	Venesiya savdogari	
4	Laert		D	Xamlet	
Javob:	1 -	2 -		3 -	4 -

2. “Xamlet” (A), “Otello”(B) , “Makbet”(C) tragediyalari qahramonlarini aniqlang va jadvalning javob qismiga yozing

1. Ofeliya	10. Rozenkrats
2. Brabansio	11. Gildestern
3. Emiliya	12. Arvoh
4. Gorasiy	13. Dunkan
5. Makbet	14. Sivard
6. Makduf	15. Klavdiy
7. Dezdemon	16. Otello
8. Rodrigo	17. Laert

9. Banko		18. Gertruda	
Javob	A -	B -	C -

3. Quyidagi asarlarni mualliflari bilan juftlang va belgilangan joyga yozing

Жадвалдагиларни бир-бирига мослаштиринг			
1.	Shekspir	A	“Malta yahudiysi”
2.	Kristofer Marlo	B	“Sevgining behuda zo‘rayishi”
3.	Tomas Mor	V	“Yangi Atlantida”
4.	Frensis Bekon	G	“Utopiya”

4. Quyidagi “Gamlet” tragediyasi qahramonlarini tavsifi bilan juftlang va belgilangan joyga yozing

Жадвалдагиларни бир-бирига мослаштиринг			
1.	Ofeliya	A	Daniya qirolichasi
2.	Klavdiy	B	Poloniyning o‘g‘li
3.	Poloniy	V	soldat
4.	Laert	G	Norvegiya shahzodasi
5.	Gamlet	D	Daniya qiroli
6.	Gorasio	YE	Gamletning universitetdagi do‘sti
7.	Gertruda	J	Poloniyning qizi
8.	Fortinbras	Z	Saroy xizmatchisi
9.	Gildestern	I	Gamletning do‘sti
10.	Rozenkrans	K	Qirol maslahatchisi
11.	Voltimand	L	Daniya shahzodasi
12.	Fransisko	M	Gamletning universitetdagi do‘sti

5. Shekspir asarlarini ularning janri bilan juftlang

1	Venesiya savdogari		A	tragediya	
2	Richard 3		B	komediya	
3	Antoniya va Kleopatra		C	komediya	
4	Bu sizga yoqadimi?		D	Tarixiy drama	
Javob:	1-	2 -		3 -	4 -

6. Quyida berilganlardan Shekspir ijodiga xos asarlarni ajrating va mos raqamlarni jadvalning javob raqamlar qismiga yozing.

1) “O‘n ikkinchi kecha”; 2) “Tuban kishilari”; 3) “Alvido, qurol”; 4) “Malta yahudiysi”; 5) “Pigmalion”; 6) “Antoni va Kleopatra”; 7) “To‘qchilik va yo‘qchilik”; 8) “Bo‘ron”; 9) “Qish ertagi”.

Asarlar nomi	javob raqamlar
Shekspir ijodiga mansub asarlar	
Shekspir ijodiga mansub bo‘lmagan asarlar	

7. Quyida berilgan asarlarning nomlarini ularning muallifi bilan mosligini toping.

1	“Shekspir.Biografiya”	A	Entoni Berdjest
2	“Oshiq Shekspir”	B	F.YE.Xolidey
3	“Shekspir va uning dunyosi”	C	Piter Akroyd
4	“Shekspir haqida ma‘ruzalar”	D	Stenli Uells
5	“Shekspir ensiklopediyasi”	YE	U.X.Oden
6	“Kod Shekspira”	V	Jon Andervud

Javoblari:

1	2	3	4	5	6

8. Shekspir asarlari qahramonlari va pyesa nomlarini juftlang.

1	Fortinbras		A	Xamlet	
2	Yago		B	Otello	
3	Sheylok		C	Venesiya savdogari	
4	Laert		D	Xamlet	
Javob:	1-	2 -		3 -	4 -

9. “Xamlet” (A), “Otello” (B) , “Makbet” (C) tragediyalari qahramonlarini aniqlang va jadvalning javob qismiga yozing

1. Ofeliya			10. Rozenkrats		
2. Brabansio			11. Gildestern		
3. Emiliya			12. Arvoh		
4. Gorasiy			13. Dunkan		
5. Makbet			14. Sivard		
6. Makduf			15. Klavdiy		
7. Dezdemona			16. Otello		
8. Rodrigo			17. Laert		
9. Banko			18. Gertruda		
Javob	A -		B -		C -

10.Asar qahramonlarini ularga berilgan to‘g‘ri ta’rif bilan juftlang.

1	Xamlet	A	Qirol Dunkanning amakivachchasi		
2	Makbet	B	Poloniyning o‘g‘li, Ofeliyaning akasi		
3	Gorasiy	C	Daniya shahzodasi		
4	Laert	D	Xamletning do‘sti		
Javob:	1-	2 -	3 -	4 -	

Foydalanish uchun adabiyot:

1. Hamdamov.U, Qosimov A. Jahon adabiyoti. -T.: 2017.
2. S.Uells. Shekspirovskaya ensiklopediya. –M.: Raduga, 2002
3. <http://www.lib.ru/SHAKESPEARE/SHKS.DICTIONARY.TXT>
- 4.Jo‘raqulov.U.U.Shekspir. Besh mashhur fojia. “Telbaga yo‘qdur qalam....”www.kh.davron.uz
5. Jahon adiblari adabiyot haqida. -T.: 2010
6. Borisova I.F., Ermatov B.S. O‘rta asrlar G‘arbiy Yevropa adabiyotlari ravnaqining zamonaviy konsepsiyalari. -T.: «Universitet», 1994.
7. Qayumov O. Chet el adabiyoti tarixi. - T.:1979.
8. Istoriya zarubejnoj literaturi: Sredniye veka. Vozrojdeniye. (Alekseyev M.P., Jirmunskiy V.M., Mokulskiy S.S., Smirnov A.A.) - M.: “Visshaya shkola”, 1987.
9. Normatova.SH. Jahon adabiyoti. - T.: 2008.
10. Komilov.N. Tafakkur karvonlari. -T.: 1997.
11. Saidov.A.Shekspir va yurisprudensiya.- T.: “O‘zbekiston”.2011.
12. Saidov.A. Dante-yurist.-T.:” Adolat”. 2011.
- 13.Xolbekov.M.“Ingliz Uyg‘onish davri dramaturgiyasi: Uilyam Shekspir”.”Jahon adabiyoti” jurnali, 2014 yil, 5-son, 166-174 bet.
- 14.Xolbekov. M. Dante Aligeri va uning ”Ilohiy komediya”si. JA. 2013,5-son 131-137 bet.
15. Fransua Rable. “Gargantuya va Pantagryuel” romani haqida. “Jahon adabiyoti” jurnali, 2013 yil 1- son.

16. Migel` de Servantes Saavedrava uning «Don Kixot» asari haqida. Jahon adabiyoti. 2013. 3-son
17. Ibragimov.R. Donkixotcha mahdudlik yoxud zamonga begonalik. www.kh-davron.uz
18. Mahmudova S.Jahon adabiyoti. -T.: 2018. 227 bet

BADIIY ADABIYOT:

1. Shekspir.V. Tanlangan asarlar to‘plami. –T: 1978.
2. Servantes M. Don Kixot romani, -T.: ”Sharq” 2007.
3. Dante.A. Ilohiy komediya.- T.: 1980.
4. Rable.F. Gargantua va Pantagryuel.
5. Vse shedevri mirovoy literaturi v kratkom izlojenii.Syujeti i xarakteri.Zarubejnaya literatura drevnix epox, Srednevekovya i Vozrojdeniye.Ensiklopedicheskoye izdaniye. – M.: «Olimp», AST, 1997,848 s

Elektron adabiyot

1. [www. goldlit.ru](http://www.goldlit.ru)
2. [www. livelib.ru](http://www.livelib.ru)
3. [. www.wikipedia.org](http://.www.wikipedia.org)
4. [www. Wisdoms.ru](http://www.Wisdoms.ru)
5. www.kinopoisk.ru
6. www.englishstory.ru
7. .www.lib.ru
8. www.khurshiddavron.uz
9. [www. Briefly.ru](http://www.Briefly.ru)

MAZU: XVII ASR YEVROPA ADABIYOTI

1 -TOPSHIRIQ. Molyerning “Tartyuf” komediyasini o‘qing va quyidagi savollarga javob bering

1. Fransuz voqeligida yuz bergan qaysi voqealar Molyerni ushbu komediyani yaratishga ilhomlantirdi?
2. Ekspozisiya. Tartyuf haqida Pernel xonimning fikri qanday? Orgon oilasidagilar u haqda nima deydilar? Kleant va Orgon nima xususda bahslashadilar? Tartyufning ikkiyuzlamachiligini kim avvaldan sezadi? 1-pardadagi qaysi sahna kuchli ta’sirga ega?
3. 2-pardadagi voqealar qanday rivojlanadi? Marianna va Orgon to‘qnashuviga nima sabab bo‘ldi? Marianna va Valer munosabatlari qanday tasvirlangan? Ularning harakatlarida nima kulgi uyg‘otadi?

4. Voqealar rivoji. Tartyufning Dorina bilan, Elvira bilan, Orgon bilan, Kleant bilan bo'lgan munosabatlarida riyokorligi qanday anglashiladi? Orgonning ko'zini ko'r qilgan narsa nima?
5. Kulminasiya. Riyokor niqobining yechilishi. Dialog tuzish mahorati. Tartyuf nutqida uning xususiyatlarining aks etishi, uning uyat, insof, gunoh, pokizalik haqidagi fikrlari qanday?
6. Konfliktning yechim topishi. Orgon ko'zining ochilishi. Fosh etilgan Tartyufning harakatlari qanday? U qilgan ishlaridan afsusdami? Qirol aralashmaganida komediya qanday yakun topgan bo'lar edi? Bunday yakunni tanlashdan Molyerning maqsadi nima edi?
7. Pyesa klassisizm talablariga qanchalik javob beradi? Qaysi mezon va qoidalarga javob beradi yoki qaysilaridan chetga chiqadi? Asarda aks etgan turmush tarzi. Liboslardagi detallar haqida so'zlang.

Mavzu yuzasidan testlar:

1.XVII asr Yevropa adabiyotida ustunlik qilgan adabiy yo'nalishlarning nomi berilgan javobni toping.

- A) romantizm, realizm, klassisizm;
- B) realizm, barokko, klassisizm;
- S) barokko, realizm, romantizm;
- D) romantizm, sentimentalizm, barokko.

2.Qaysi adabiy yo'nalish Italiyada marinizm, Ispaniyada gangorizm, Fransiya presioz adabiyoti deb nomlangan?

- A) klassisizm; B) romantizm; S) barokko; D) realizm.

3.Klassisizm adabiyoti qachon va qayerda yuzaga kelgan?

- A) 17- asrda Fransiya; B) 16- asrda Italiya;
- S) 16- asrda Ispaniya; D) 17- asrda Angliya.

4.Klassisizm adabiyotining nazariyotchisi sanalgan ijodkor nomini toping.

- A) Pyer Kornel; B) Jan Batist Molyer; S) Nikolo Bualo D) Jan Rasin.

5. Nikolo Bualoning klassisizm nazariyasi qoidalari aks etgan asari nomini toping.

- A) "Poetika"; B) "Poeziya san'ati";
- S) "Satira xususida mulohazalar"; D) "Go'zallik haqida traktat".

6.Qaysi adabiy janrlar “yuksak” janrlar sanalgan?

- A) komediya, satira, epigramma; B) tragediya, epos, qasida;
S) komediya, qasida, epos; D) satira, epigramma, qasida.

7.Qaysi adabiy janrlar “tuban “ janrlar sanalgan?

- A) komediya, satira, epigramma; B) tragediya, epos, qasida;
S) komediya, qasida, epos; D) satira, epigramma, qasida.

8.”Yuksak” adabiy janrlarda nima tasvirlanishi kerak?

- A) davlat ishlari, qirol va hukmron tabaqa vakillari harakati;
B) uchinchi toifa vakillarining kundalik turmushi;
S) “go‘zal” tabiatga taqlid;
D) turli tabaqa vakillarining kundalik turmushi.

9.”Tuban” adabiy janrlarda nimalar tasvirlanishi kerak bo‘lgan?

- A) davlat ishlari, qirol va hukmron tabaqa vakillari harakati;
B) uchinchi toifa vakillarining kundalik turmushi;
S) “go‘zal” tabiatga taqlid;
D) turli tabaqa vakillarining kundalik turmushi.

10.Quyida ko‘rsatilgan qoidalarining qaysi biri klassisizm adabiyotining uch birlik qonuniga talluqli emas?

- A) vaqt birligi qonuni; B) o‘rin birligi qonuni;
S) harakat birligi qonuni; D) real hayotni gavdalantirish qonuni.

FOYDALANISH UCHUN ADABIYOT:

1. Borisova I.F., Ermatov B.S. O‘rta asrlar G‘arbiy Yevropa adabiyotlari ravnaqining zamonaviy konsepsiyalari. -T.: «Universitet», 1994.
2. Qayumov O. Chet el adabiyoti tarixi. - T.:1979.
3. Istoriya zarubejnoj literaturi: Sredniye veka. Vozrojdeniye. (Alekseyev M.P., Jirmunskiy V.M., Mokulskiy S.S., Smirnov A.A.) - M.: “Visshaya shkola”, 1987.
4. Vse shdevri mirovoy literaturi v kratkom izlojenii. Syujeti i xarakteri.Zarubejnaya literatura drevnix epox, Srednevekovya i Vozrojdeniya.Ensiklopedicheskoye izdaniye. – M.: «Olimp», AST, 1997, 848 s
5. Komilov.N.Tafakkur karvonlari.-T.: 1997.
5. [www. goldlit.ru](http://www.goldlit.ru)
6. [www. livelib.ru](http://www.livelib.ru)
7. www.wikipedia.org
- 8.[www. Wisdoms.ru](http://www.Wisdoms.ru)
9. www.kinopoisk.ru
10. www.englishstory.ru
- 11.www.lib.ru

MAVZU: YEVROPA MA'RIFATCHILIK DAVRI ADABIYOTI

1-TOPSHIRIQ. Quyidagi mavzularning biri bo'yicha kirish nutqi tayyorlang.

1. Ingliz va Yevropa ma'rifatchiligida J.Sviftning o'rni.
2. Jan Jak Russo va russoizm.
3. Deni Didro va uning jahon madaniyatiga qo'shgan hissasi.
4. Lessing va uning milliy madaniyat rivojidagi o'rni.
5. Gyote ijodining taraqqiyot yo'li.

2 -TOPSHIRIQ. Fridrix Shillerning "Qaroqchilar" pyesasini o'qib chiqing. Asar syujetidagi qismlar: kirish, konfliktning yuzaga kelishi, voqealar rivoji, kulminasiya, yechim. Shiller bu asarida qanday ma'naviy axloqiy muammolarni ko'tarib chiqadi va qanday badiiy uslub va vositalardan foydalanadi?

3- TOPSHIRIQ. Gyotening "Faust" tragediyasini o'qing va savollarga javob bering.

1. Xudo va Mefistofel o'rtasidagi kelishuvning mohiyati nimada? (Arshi a'lodagi prolog).
2. Faustning o'ziga xosligi nimalarda ko'rinadi? U nimadan zerikadi va ko'ngli qoladi? Faustning Vagnerdan farqi nimada?
3. Mefistofel kim? Uning insonga va insoniyatga munosabati qanday? U Faust bilan qanday tajriba o'tkazmoqchi bo'ladi? Mefistofel obrazi asarda nimani anglatadi, unga muallif qanday mazmun yuklaydi? U Faustning tamomila teskarisimi?
4. Faust nima uchun Mefistofel bilan kelishuv imzolaydi va qanday shartlar qo'yiladi? Ushbu kelishuvning mohiyati haqida Faust va Mefistofel tasavvuri bir xilmi?
5. Mefistofel nima uchun Faustni Leypsigdagi Auerbax yerto'lasiga olib keladi?

6. Margarita kim? U yashayotgan shaharchaning urf odatlari, an'analari qanday? U o'zi yashayotgan muhitda ajralib turadimi? Uning dini, e'tiqodi Faustnikidan farqlimi? Margarita vaqt o'tishi bilan o'zgaradimi?
7. Margarita va Faust munosabatlari haqida fikringiz qanday? Sevgi ularning hayotida qanday o'rin tutgan?
8. Margarita bilan bo'lgan voqeada Mefistofel Faustni yengadimi? Faust sodda qizni yo'ldan urgan kishi hisoblanadimi? Faustda nima uyg'ondi: ilohiy ishqmi yoki Mefistofelga xos jihatmi? Margaritaning o'limida Faust aybdormi? Nima asarning fojiali yakun topishiga sabab bo'ladi? Gyote nima uchun qahramoniga hayotini davom ettirish imkonini beradi?
9. Faust hayotida sevgining o'rni qanday? Gyote asarida Margarita obrazi qanday o'ringa ega?
10. Tragediyaning ikkinchi qismida Faust va Mefistofel munosabatlari o'zgaradimi?
11. Faust izlanishlarining yakuni qanday? Nega Faust o'limi oldidagi monologini ko'zi ojizlashish holatida aytadi? U izlaganiga erishdimi? Asarning final sahnalarini qanday tushunasiz?

4-Topshiriq. Daniyel Defoning "Robinzon Kruzo" asarini o'qib quyidagi savollarga javob bering

1. Robinzon Kruzo sarguzashtlari boshqa qahramonlarning sarguzashtlaridan nimasi bilan farq qiladi?
2. Robinzon qanday qilib kimsasiz orolga borib qoladi?
3. Sizningcha yolg'izlik nima va uning nimasi qo'rqinchli?
4. Robinzon orolda halok bo'lmaslik va yovvoyilashmaslik uchun nimalar qiladi?
5. Robinzonga uning xarakteridagi qaysi jihatlar yordam beradi?
6. Unig Jumavoy bilan do'stligi qanday yordam beradi?
7. 28 yilni kimsasiz orolda o'tkazishda uning xudoga bo'lgan ishonchi qanchalik yordam beradi?
8. Robinzon obrazi kattalar va bolalarni nimasi bilan o'ziga tortadi?

5-Topshiriq.:J.Sviftning “Gulliverning sayohatlari” romanini o‘qib chiqib quyidagi savollarga yozma javob bering.

1. Gulliver otasi unga jo‘natgan pullarni nimalarga sarflaydi?
2. Gulliverning eng katta orzusi nima edi?
3. Gulliver borib qolgan birinchi mamlakat qanday edi?
4. Liliputiya xalqi Gulliverga qanday munosabatda bo‘ladi?
5. Liliputiya va Blefusku o‘rtasidagi urushning sababi nimada?
6. Gulliver nega Liliputiya va Blefuskudan ketadi?
7. Gulliver Liliputiyaning tasvirlaganda qaysi mamlakatni nazarda tutadi?
8. Guingnmlar va yexular kimlar?
9. Gulliver sarguzashtlari qancha muddat davom etadi?
10. Asar qahramonlarini sanab bering

**KEYS: GYOTENING “FAUST” TRAGEDIYASI G‘OYAVIY-BADIYY
XUSUSIYATLARI**

Keys savollar:

1. Gyotening “Faust” tragediyasi bosh qahramonini qaysi adabiy personaj bilan qiyoslash mumkin?
2. Gyotening o‘zi Faustning proobrazi bo‘lishi mumkinmi?
3. Asar sizda qanday taassurot uyg‘otdi?
4. Asar muqaddimasidagi teatr direktori, shoir va komik aktyor o‘rtasidagi munozara, unda ko‘tarilgan muammo haqida fikringiz qanday?
5. San‘at olomonga xizmat qilishi kerakmi yoki buyuk va abadiy xilqat vazifasini bajarishi lozimmi?
6. Haqiqiy san‘at va muvaffaqiyatga qanday erishish mumkin?
7. Nima uchun asar boshida Faust din, falsafa, huquq va medisani o‘rgansam-da ahmoqligimcha qoldim “, deb so‘z boshlaydi?
8. “Faust” tragediyasidagi Wagner kim? Uni tavsiflang.
9. “Faust” nima uchun zahar ichib o‘lmoqchi bo‘ladiyu, o‘lmay qoladi?

10. Sayrga chiqqan Faust qora pudelni uyga boshlab keladi, qora pudel aslida kim edi?
11. Asardagi Margarita (Gretxen)ga tavsif bering. Faustni uchratgan Margaritaning hayotida nima hodisalar yuz beradi?
12. Valentin kim? Uning o'limiga kim aybdor?
13. Faust va Mefistofel Broken tog'iga nima uchun boradilar?
14. Valpuriy kechasida Faust bilan nimalar yuz beradi?
15. Faust imperator saroyida nima qiladi?
16. Mefistofel Faustga bergan sehrli kalit qanday vazifalarni bajaradi?
17. Sun'iy odam Gomunkulni kim yaratadi?
18. Asardagi Evforion kimning farzandi?
19. Filemon va Bavkida kimlar? Ularning taqdiri qanday kechadi?
20. Asardagi qaysi bosh qahramon oqsoq, qaysi biri ko'zi ojizlashayotgan etib tasvirlanadi?

Keys vaziyat: Tasavvur qiling. Siz Faustning o'rnida bo'lsangiz qanday yo'l tutgan bo'lar edingiz?

TEST SAVOLLARI

1. Gyote asrlari keltirilgan javobni keltiring.

- A) "Makr va muhabbat", "Klod Gyo", "Xo'rlanganlar";
- B) "Qaroqchilar", "Faust", "Gyos fon Berlixingen";
- S) "Faust", "Yosh Verterning iztiroblari", "Mag'ribu Mashriq devoni";
- D) "Kain", "Shilyon tutquni", "Faust".

2. "Trubadurlar" kimlar?

- A) fransuz aktyorlari; B) risar lirikasi shoirlari;
- S) ispan harbiylari; D) ingliz aristokratlari.

3. Gyotening "Faust" asarida xudo va Mefistofel nima haqda bahs boshlashadi?

- A) Faust go'zal Yelenaga erisha oladimi deb
- B) Faust o'z iymonini qutqara oladimi deb
- S) Faust o'z g'ururini jilovlay oladimi deb
- D) Faustni shogirdi Vagner sotadimi deb

4. Mefistofel Faustga nimani taklif qiladi?

- A) buyuk bilimlar uchun iymonini unga sotishni

- B) hayotning butun go‘zalligini ko‘rib yashashni
- S) Margaritani darddan xalos qilish uchun unga iymonini sotishini
- D) Yelenaga yetishish uchun uning aytganini qilishini

5. Faust Mefistofelning quliga aylanishi uchun undan nimani so‘rashi kerak edi?

- A) Margaritani darddan tuzalishini B) uni uchishga o‘rgatishini
- S) vaqt to‘xtab turishini D) o‘tmishga sayohat qildirishni

6. Ko‘p bilimlarni o‘rgangan Faust o‘zini kim deb biladi?

- A) buyuk olim B) ahmoq S) dangasa D) omadsiz

7. “Kitoblar jangi” va “Bochka haqida ertak” asarlarining muallifi kim?

- A) Shiller B) Daniel Defo S) Jonatan Svift D) Gofman

8. Quyida nomi keltirilgan asarlarning qaysi biri Hofiz Sheroziy ijodidan ilhomlanib yaratilgan?

- a) Bayron «SHarq dostonlari»; b) Shiller «Makr va muhabbat»;
- c) Kristofer Marlo «Buyuk Temur»; d) Gyote «Mag‘ribu Mashriq».

9. Nemis ma’rifatchilik adabiyoti namoyandalari berilgan qatorni toping.

- a) Servantes, Balzak, Deni Didro; b) Fridrix Shiller, Daniel Defo, Jonatan Svift;
- c) Efraim Lessing, Fridrix Shiller, Gyote; d) Bayron, Bomarshe, Daniel Defo.

10. Angliya ma’rifatchilik adabiyoti namoyandalari berilgan qatorni toping.

- a) Daniyel Defo, Jonatan Svift, Robert Byorns;
- b) Daniyel Defo, Deni Didro, Fridrix Shiller;
- c) Jonatan Svift, Deni Didro, Jan Jak Russo;
- d) Daniyel Defo, Bomarshe, Robert Berns.

FOYDALANISH UCHUN ADABIYOT:

1. Azizov Q., Qayumov O. Chet el adabiyoti tarixi. – T.: «O‘qituvchi», 1987.
2. Artamonov S.D. Istoriya zarubejnoj literaturi XVII–XVIII vv. – M.: «Prosvesheniye», 1978.
3. Filippov M.M. Ocherki o zapadnoy literature (XVIII -XIX v.v.) – M., «Nauka», 1985.
4. Normatova SH. Jahon adabiyoti. – T.: “Ma’naviyat”, 2008.
5. Russo.J.J. Ilm-fan va san’at ravnaqi axloqning poklanishiga yordam beradimi? “JA”, 2010 / 6.
6. Vamberi.X. Ma’rifat yo‘lidagi uyg‘onish. “Tafakkur”, 2000/2.
7. Ekkerman.Y.P. Gyote bilan gurunglar. “JA”jurnali. 2012, 1-son.
8. Saidov A. Gyote – yurist. – T.: “O‘ZBEKISTON”, 2010. – 144 b.
9. Saidov U. Yevropa ma’rifatchiligi va milliy uyg‘onish. – T.: “Akademiya”, 2004.

10. Hamdamov.U, Qosimov A. Jahon adabiyoti. -T.: 2017.
11. Mahmudova S. Jahon adabiyoti. -T.: 2018.

BADIIY ADABIYOT:

1. Gyote I.V. Faust. – T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1974.
- 2.Gyote I.V. G‘arbu Sharq devoni. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010.
- 3.Gyote I. V. «Yosh Verterning iztiroblari». – T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1975.
- 4.Gyote.I.V. Saylanma.- T.: 2014.
- 5.Shiller F. Makr va muhabbat. – T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1985.
- 6.Lessing G. E. Donishmand Natan. “JA”, 2004/4-5.
- 7.Volter. Zadig yoki taqdir. – T.: “O‘zbekiston”, 1995
- 8.Defo.D Robinzon Kruzoning sarguzashtlari. –T.: 2015.
- 9.Svift.J. Gulliverning sayohatlari. - T.: 2015
10. Vse shedevari mirovoy literaturi.V kratkom izlojenii.Syujeti i xarakteri. Zarubejnaya literatura XX veka v 2 knigax. “Olimp”, AST.- M.: 1997, 832 s

MAVZU: XIX ASR YEVROPA ROMANTIZM ADABIYOTI

1- TOPSHIRIQ. Quyidagi mavzularning biri bo‘yicha kirish nutqi tayyorlang.

1. Valter Skott tarixiy dramalari.
2. Amerika romantizm adabiyoti.

2-TOPSHIRIQ. Bayronning “Don Juan” dostonini o‘qing va uning mavzusi haqida so‘zlab bering.

3- TOPSHIRIQ. Viktor Gyugoning “Parij Bibi Maryam ibodatxonasi” romanini o‘qib, savollarga javob bering.

1. Gyugo romanda qaysi tarixiy davrga murojaat qiladi? U “tarixning axloqiy jihati”ni qanday yoritadi?
2. Romanda kim yovuzlik timsoli sifatida ko‘rsatiladi? Yozuvchi fikricha, yovuzlikning asosi tabiatga borib taqaladimi yoki u ijtimoiy kelib chiqishga egami?
3. Ezgulikning mohiyati nimada? Asarda ezgulikning timsoli kim? Yaxshilik yovuzlik ustidan g‘alaba qozonadimi?
4. Romanda kontrast usul nimalarda ko‘rinadi ? Obrazlarning ichki va tashqi tasviridagi kontrastga e’tibor qiling.

5. Asarda grotesk (mubolag'a) ning qo'llanishiga e'tibor qiling. Uning qo'llanishiga misollar keltiring. Bu usullar nimaga xizmat qilgan?
6. Bu romanning qaysi jihatlari uni romantizm adabiyotiga mansub etadi? Asar problematikasi, xarakteri, ijobiy qahramon tipi, asar tiliga e'tibor qiling.

TEST SAVOLLARI

1. Viktor Gyugo romanlarining nomi to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.

- A) "Xo'rlanganlar", "Byug Jargal", "Dengiz zahmatkashlari";
B) "Parij Bibi Maryam ibodatxonasi", "Don Juan", "Kulayotgan odam";
S) "To'qson uchinchi yil", "Xo'rlanganlar", "Makbet";
D) "Klod Gyo", "Byug Jargal", "Don Kixot".

2. Mashhur "Notr Dam de Pari" myuzikli qaysi asar asosida yaratilgan?

- A) "Faust" tragediyasi
B) "Xo'rlanganlar" romani
S) "Parij Bibi Maryam ibodatxonasi" romani
D) "Kulayotgan odam" romani

3. Bayronning "Don Juan" asarini o'zbek tiliga o'g'irgan shoir kim?

- A) Abdulla Sher
B) Salim Ashurov
S) Jamol Kamol
D) Faxriyor

4. Real voqelikni emas, idealdagi voqelikni aks ettiruvchi adabiy oqim(metod) ning nomini toping.

- A) realizm
B) romantizm
S) klassisizm
D) modernizm

5. Bayron dostonlari berilgan javobni toping

- A) Gyaur, Abidoss kelinchagi, Lara;
B) Shilyon tutquni, Manfred, Faust;
S) Kain, Don Juan, Byug Jargal;
D) Oliver Kromvel, Mariya Tyudor, Qaroqchilar.

6. Parij Bibi Maryam ibodatxonasi devorida qanday yozuv yozilgan edi?

- A) yo'qotish
B) taqdir
S) o'lim
D) ehtiyoj

7. "Parij Bibi Maryam ibodatxonasi" romanidagi "mo'jizalar saroyi" bu...

- A) ko'chmanchi sirk
B) hashamatli saroy
S) yo'qsil va o'g'rilar saltanati
D) oqsuyaklar xonadoni

8. Romantizm adabiyotining bosh xususiyatini ko'rsating.

- A) maishiy muammolarni tasvirlash
B) ijtimoiy siyosiy masalalarni hal etish
S) muhabbatni kuylash
D) ideal obraz, ideal obrazni ko'rsatish

9.Bayron dostonlarining o‘ziga xos jihati ...

- A) sayohat dostonlar
- B) boshqa romantik ijodkorlarnikidan ko‘ra ko‘proq avtobiografik
- S) hayotni real tasvirlagan
- D) syujetlarining originalligi

10.Bayron qaysi davlatning milliy qahramoni sanaladi?

- A) Angliya
- B) Fransiya
- S) Gresiya
- D) Ispaniya

FOYDALANISH UCHUN ADABIYOT:

1. Normatova.SH.Jahon adabiyoti. -T.: 2008.
2. Ismoilov.H. Jahon adabiyoti.O‘zDSMI nashri.-T.:2008.
3. Jahon adiblari adabiyot haqida.- T.: 2010.
4. Quronov.D. va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug‘ati.- T.: 2010.
5. Gyugo.V. Dengiz zahmatkashlari. Roman. -T.:1965.
6. Bayron J. Ushalmagan orzular. -T.: O‘zbekiston, 2011.
7. Ozod vatan orzusi edi.Maqola. “Jahon adabiyoti” jurnali.2013-yil.
8. Vse shdevri mirovoy literaturi.V kratkom izlojenii. Syujeti i xarakteri. Zarubejnaya literatura XX veka v 2 knigax. “Olimp”, AST.- M.: 1997, 832 s

MAVZU: XIX ASR YEVROPA REALIZM ADABIYOTI

1- TOPSHIRIQ Quyidagi mavzularning biriga nutq tayyorlang.

1. Onore de Balzak va uning “Inson komediyasi”.
2. Charlz Dikens romanlarida ijtimoiy- axloqiy muammolar.
3. Stendal ijodi va unda “Qizil va qora” romanining o‘rni.

2- TOPSHIRIQ. Balzakning “Gobsek” qissasini o‘qing. Balzakning xarakter yaratish usullarini izohlang. Quyidagilarga e’tibor qiling:

- A) portret xarakteristikasi;
- B) atrof- muhitni tasvirlashga;
- S) qahramonning o‘zining xarakterini tasvirlashi;
- D) qahramonning boshqalarning ko‘zi bilan tasvirlanishiga.

Gobsek tamomila salbiy qahramon hisoblanadimi? Uning zamonaviy jamiyat haqidagi fikrlariga qo‘shilasizmi?

3-TOPSHIRIQ. Gyustav Floberning “Bovari xonim” romani qahramoni Emma Bovari taqdirini kuzating. Nima uchun uning orzu-umidlari sarobga aylandi, oilaviy hayoti esa fojia bilan yakun topdi?

1. Vobyesardagi bal epizodining mohiyati nimada? Uning birinchi marta ko‘ngli qolishidagi ramziy detal qaysi? Bovari SHarldan ko‘ngli to‘lmasligida haqmi?
2. Emma Bovarini Leon Dyupyui bilan qanday umumiy tomonlari bor? Ularning munosabatlari birinchi bosqichda platonik muhabbatligicha qolishiga sabab nimada?
3. Emma Bovarining Rodolf bilan munosabatlari qanday rivojlanadi? Qishloq xo‘jalik ko‘rgazmasidagi sahnaning mohiyati nimada? Muallif ularning munosabatlariga axloq nuqtai nazaridan qanday baho beradi? Siz- chi?
4. Emmaning axloqiy tubanlikka sho‘ng‘ishi va hayotining fojiiyaviy yakun topishi qanday tasvirlanadi?
5. “Bovarizm” terminini qanday tushunasiz?

4-TOPSHIRIQ.Quyidagi mulohazalar kimga tegishli? Muallifini aniqlang va unga o‘z munosabatingizni bildiring.

“San’at bilan tilni ehtiyot qilib asranglar, negaki, moddiy manfaatlaringizni bartaraf qilganingizdan so‘ng bizning asarlarimizda hayot kechirishda davom etasizlar. Bizning asarlarimiz esa hech qachon o‘lmaydi”.

TEST SAVOLLARI

1. Dantonning «Haqiqat. Achchiq xaqiqat» so‘zlari qaysi mashhur asarga epigraf qilib olingan?

- a) «Brut»; b) «Qizil va kora»; c) «Jan-Kristoff»; d) «Tong»

2. G.Floberning romantik hayolparastlikka qarshi yozilgan asari.

- A) “Salambo” B) “Bovari xonim”
S) “Buvar va Pekyushe” D) “Tuyg‘ular tarbiyasi”.

3. Jyulyen Sorel qaysi asarning bosh qahramoni?

- A) “Bovari xonim” B) “Parma ibodatxonasi”
S) “Qizil va qora” D) “Oliver Tvistning boshidan kechirganlari”

4. Asl ismi Anri Beyl bo'lgan fransuz yozuvchisini toping.

- A) Onore de Balzak B) Fransua Rable
S) Gyustav Flober D) Frederik Stendal

5. O'zini "ijtimoiy fanlar doktori" deb atagan fransuz ijodkori kim?

- A) Gyustav Flober B) Frederik Stendal S) Onore de Balzak D) Viktor Gyugo

6. Onore de Balzak asarlari berilgan javobni toping.

- A) "Qizil va qora", "Vanina Vanini", "Parma ibodatxonasi"
B) "Gobsek", "Sag'ri teri tilsimi", "Gorio ota"
S) "Bovari xonim". "Salambo", "Tuyg'ular tarbiyasi"
D) "Egoistning kundaliklari", "Yevgeniya Grande", "Sovuq uy"

7. Flober asarlari to'g'ri berilgan javobni toping.

- A) "Qizil va qora", "Vanina Vanini", "Parma ibodatxonasi"
B) "Gobsek", "Sag'ri teri tilsimi", "Gorio ota"
S) "Bovari xonim". "Salambo", "Tuyg'ular tarbiyasi"
D) "Egoistning kundaliklari", "Yevgeniya Grande", "Sovuq uy"

8. Frederik Stendal asarlari nomi to'g'ri berilgan javobni toping.

- A) "Qizil va qora", "Vanina Vanini", "Parma ibodatxonasi"
B) "Gobsek", "Sag'ri teri tilsimi", "Gorio ota"
S) "Bovari xonim". "Salambo", "Tuyg'ular tarbiyasi"
D) "Egoistning kundaliklari", "Yevgeniya Grande", "Sovuq uy"

9. CHarlz Dikkens asarlari nomi to'g'ri berilgan javobni toping.

- A) "Qizil va qora", "Vanina Vanini", "Parma ibodatxonasi"
B) "Gobsek", "Sag'ri teri tilsimi", "Gorio ota"
S) "Bovari xonim". "Salambo", "Tuyg'ular tarbiyasi"
D) "Dombi va o'g'li", "Nikolas Niklbi", "Sovuq uy"

10. XIX asr ingliz tanqidiy realizm adabiyoti vakili berilgan javobni toping.

- A) Shekspir B) Dikkens S) Ctendal D) Balzak

FOYDALANISH UCHUN ADABIYOT:

1. Hamdamov U. Qosimov A. Jahon adabiyoti.- T.: 2017.
2. Ismoilov.X. Jahon adabiyoti, o'quv qo'llanma, -T.: 2008.
3. Jahon adiblari adabiyot haqida. -T.: Ma'naviyat, 2010.
4. Quronov.D va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug'ati.T., 2010.
5. Sulaymonova F. «Sharq va G'arb» - T.: 1997 .
6. Stendal.F. Qizil va qora. Parma ibodatxonasi. –T.: 1988.
7. Balzak O. Gobsek. Sag'ri teri tilsimi. -T.: 1981.
8. Merime P. Karl IX saltanatining yilnomasi, -T.: 1978.
9. Flober G. Bovari xonim. - T.: 1976. N.Ziyoxonova tarjimai.

10. Dikens CH. Oliver Tvist boshidan kechirganlari. -T.: 1984.
11. Flober.G Soddadil. Qissa. JA. Jurn.2011.1-son.
12. Onore de Balzak va «Inson komediyasi». Maqola. JA.2008. 1-son.
- 13.Floberning buyukligi nimada? JA.jurnali.2012.12-son.178-180 b.
- 14.Vse shedevari mirovoy literaturi.V kratkom izlojenii. Syujeti i xarakteri. Zarubejnaya literatura XX veka v 2 knigax. “Olimp”, AST.- M.: 1997, 832 s

MAVZU: XIX ASR OXIRI XX ASR BOSHLARI YEVROPA ADABIYOTI

1-TOPSHIRIQ. Quyidagi mavzularning biriga oid kichik hajmdagi ma'lumotnoma tayyorlang.

1. G'arbiy Yevropada “yangi drama”. (G.Ibsen, B.Shou)
2. Gi de Mopassan ijodida realistik an'analarning davom ettirilishi.
3. R.Stivenson va ingliz adabiyotida neoromantizm.
4. G.Uells- zamonaviy ilmiy fantastika asoschisi.

2 -TOPSHIRIQ. Gi de Mopassanning “Azizim” romanini o'qib chiqing va quyidagi savollarga javob bering.

1. Asar qahramonlarining xulqi ularning taqdiriga qanchalik ta'sir ko'rsatadi?
2. Romanda sevgi qanday tushuniladi?
3. Jorj Dyuruaning ichki va tashqi ko'rinishini tavsiflab bering.
4. Bu romanni karyera romani hisoblash mumkinmi?
5. Roman qahramonlarining ma'naviy qiyofasi haqida nimalar deya olasiz?

3 -Topshiriq. Berilgan matnni o'qib chiqing va savollarga javob bering.

GREGERIYA USTASI

Taniqli ispan adibi, roman, drama, novella va esselar muallifi Ramon Gomes de la Serna (1888 — 1963) “gregeriya” janri asoschisi hisoblanadi. Gregeriya bir-ikki jumladan iborat qisqa badiiy matn bo'lib, hikmat va obrazli mushohada tarzidagi hazil-mutoyiba, majoziy kinoyadir. Madridda shakllangan yangicha ilg'or yo'nalishda faollik ko'rsatgan yozuvchining o'zi bu haqda shunday yozadi: “Gregeriya o'tib ketayotgan lahzani, o'limga mahkum omonat voqelikni tutib qoladi — axir, insonga doir hamma narsa muvaqqat emasmi? Insoniylik — insoniy

san'atning burchi ham yo'qlik komiga tushayotgan tuyg'u va hissiyotlarni saqlab qolishdan iborat-ku!" De la Serna deyarli barcha janrlarda syurrealizmga yaqin uslubda ijod qilgan. U adabiy manifestlar, Lope de Vega, Kevedo, Ryoskin, Edgar Po, Oskar Uayld, Valye-Inklan, Asorin, Kolett, Kokto, El Greko, Velaskes, Goyya, Solana, Pikasso kabi yozuvchi va rassomlar tarjimai hollarini yozgan. Doimiy "qahramon"lari madridliklar bo'lib, shahar markazidan to chekkasigacha ko'cha sirkariyu bozorlarni ham qamrab oladi. Uning Parij, Neapol, Lissabon, shuningdek, Argentinada bo'lgan davrida Buenos-Ayres va tango haqida yozgan esselari ayniqsa mashhur. fikricha, de la Sernani Jyul Renar kartinalari gregeriylar yozishga undagan. Gregeriya hikmatli so'z — aforizmning aksi sifatida ham namoyon bo'ladi. YA'ni aforizm tasdiqlasa, olamning azaliy qoidalarini qayd etsa, gregeriya esa istisno axtaradi, tasodifiy hodisadan quvonadi. Shu sababli F.Moreno gregeriyalarni mavj urib vijillovchi musallas pufaklariga o'xshatgan. "Metaforalar qiroli" deb nom olgan adibning "gregeriya" janridagi ijod namunalari bugun jahonning juda ko'plab tillariga tarjima qilinmoqda

Savollar:

1. Ramon Gomes de la Serna kim? U haqda ma'lumot bering
2. Uning ispan adabiyotidagi o'rni qanday?
3. Gregeriya janri qanday janr? Misollar topib keltiring
4. Yozuvchini nima uchun "metaforalar qiroli" deb ataydilar?

4 -TOPSHIRIQ. Modernizm, dadaizm, syurrealizm, naturalizm, absurd falsafasi, ekzistensializm, ekspressionizm., impressionizm, simvolizm, dekadent adabiyoti, tafakkur yoki ong oqimi, neomodernizm, postmodernizm kabi terminlarni "Adabiyotshunoslik lug'ati" dan foydalanib o'rganing, ularning o'ziga xos jihatlarini misollar yordamida tushuntiring.

5 -TOPSHIRIQ. Jahon modernizm adabiyotining yuzaga kelishida Zigmund Freyd va Fridrix Nisshening falsafiy qarashlari qanchalik o'z ta'sirini

ko'rsatgan? Ushbu savolga qo'shimcha adabiyot va internet materiallaridan foydalanib javob bering.

TEST SAVOLLARI

1. Qaysi yozuvchi tug'ilgan va yashash joyiga ko'ra pragalik cheh, tiliga ko'ra nemis, tayangan madaniy an'analariga ko'ra avstraliyalik, millatiga ko'ra yahudiy?

A) Emil Zolya B) Alber Kamyu S) Frans Kafka D) Jek London

2. Naturalizm oqimining yirik vakili bo'lgan yozuvchini toping.

A) Gi de Mopassan B) Emil Zolya S) Frans Kafka D) Jeyms Joys

3. "Rugon- Makkarlar" epopeyasining muallifini toping.

A) Emil Zolya B) Gi de Mopassan S) Frans Kafka D) Jeyms Joys

4. Jorj Dyurua qaysi asarning bosh qahramoni?

A) "Gobsek" B) "Hayot" S) "Azizim" D) "Rugon- Makkarlar"

5. 20 ta romandan iborat bo'lgan, 25 yil davomida yaratilgan asar qaysi?

A) "Inson komediyasi" B) "Gargantyua va Pantagryuel"
S) "Urush va tinchlik" D) "Rugon -Makkarlar"

6. "Hayotning ma'nosi uning bema'niligida" deya uqtiruvchi adabiy oqim qanday ataladi?

A) ekspressionizm B) impressionizm S) ekzistensializm D) naturalizm

7. Bir lahzada kechgan muayyan taassurotlarni tasdiqlash, ro'yobga chiqarish, aks ettirishga asoslangan adabiy oqimning nomini toping.

A) ekspressionizm B) impressionizm
S) ekzistensializm D) naturalizm

8."Badiiy asar va ilm bir narsa.Faqat ularning tanlagan obyektlari, metodlari boshqacha, maqsadlari esa bitta" degan fransuz yozuvchisi kim?

A) Emil Zolya B) Gi de Mopassan S) Viktor Gyugo D) Fransua Rable

9."Uliss" romani muallifini toping.

A) Emil Zolya B) Frans Kafka S) Jeyms Joys D) Gi de Mopassan

10. Do'stiga vafotidan keyin asarlarini yoqib yuborishni vasiyat qilgan yozuvchining ismini toping.

A) Emil Zolya B) Frans Kafka S) Jeyms Joys D) Gi de Mopassan

FOYDALANISH UCHUN ADABIYOT:

1. Normatova SH. Jahon adabiyoti. – T.: “Ma’naviyat”, 2008.
2. Zarubejnaya literatura XX veka. – M.: «Visshaya shkola», 2000.
3. Do‘stmuhamedov Q. «Nobel mukofotini olgan adiblar», – T.: «Ma’naviyat», 2002.
4. Adiblarning Nobel ma’ruzalari. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa uyi, 2008..
5. Jo‘rayev T. Ong oqimi. Modern. “Farg‘ona” nashriyoti, 2009.
6. Espen Xovardsxolm. Modernizm//Jahon adiblari adabiyot haqida. – T.: “Ma’naviyat”, 2010.
7. Zatonskiy D.V. Frans Kafka i problemi modernizma. -M.: «Visshaya shkola», 1992.
8. Quronov. D va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug‘ati.-T.: Akademnashr, 2010.
9. Jo‘rayev.T.Joys fenomeni. Jahon adabiyoti jurnali, 2013 yil, 7-son.
- 10.Vse shedevri mirovoy literaturi.V kratkom izlojenii. Syujeti i xarakteri. Zarubejnaya literatura XX veka v 2 knigax. “Olimp”, AST.- M.: 1997, 832 s
- 11.Hamdamov U. Modernizm va postmodernism. -T.: 2021.

BADIIY ADABIYOT:

1. Joys J. Navqiron san’atkorning siyrati. JA jurnali, 2007-yil, 3-4-son.
2. Joys. J. Uliss sarguzashtlari. I.G‘afurov tarjimasi. -T.: “O‘zbekiston”, 2013.
3. Kamyu A. Begona. – T.: “Yozuvchi”, 1995.
4. Kafka F. Jarayon. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2006.

MAVZU: XX ASR YEVROPA VA AMERIKA ADABIYOTI

1 -TOPSHIRIQ. Quyidagi mavzularning biri bo‘yicha ma’lumot tayyorlang.

1. X.Xessening “intellektual romanlari”.
2. Mark Tven ijodi.
3. Teodor Drayzer, F.S.Fitsjerald ijodida “amerikacha orzu”ning aks etdirilishi.
4. Jek Londonning “Shimol hikoyalari”da ruhan kuchli insonlar tasviri.

2 -TOPSHIRIQ. Ernest Xemingueyning “Alvido, qurol!” romanini o‘qib, quyidagi savollarga javob bering.

1. Asar qahramonining insonlarga, urushga, jamiyatga bo'lgan munosabatida evolyusiya yuz beradimi?
2. Qahramon o'zgalarning urush haqidagi qanday fikrlarini eshitadi? Genrining o'zi urushda nimalarga duch keladi? Asarning 3- qismidagi chekinish uning hayotida qanday rol o'ynaydi?
3. Qahramonning taqdirida sevgi qanday o'rin tutadi?
4. Genrining urush va hayot haqidagi mulohazalarining yakuni qanday?

3 -TOPSHIRIQ. Quyidagi matnni o'qing. Gap qaysi asarlarning qahramonlari haqida ketyapti? Qahramonlarning keyingi taqdiri qanday kechadi?

“Klayd mehnat faoliyatini 9 yoshda boshlaydi: ko'chada Injil psalmalarini kuylaydi, gazeta sotadi, mehmonxonada hammollik qiladi. Uzoq muddat qiynalib yashaganman deb hisoblagani uchun ko'ngilxushlik uchun paydo bo'lgan barcha imkoniyatlardan foydalanishga harakat qiladi. Frenk esa birinchi marta 14 yoshida tadbirkorlikni qo'llab olib-sotarlik qila boshlaydi. Yutuqlaridan ilhomlanib, 16 yoshida maktabni tugatib, kollejda o'qishni davom ettirmay qo'ya qoladi. Chunki u maktab real hayotda yordami tegmaydigan narsalarni o'rgatadi degan fikrda bo'ladi.

Frenk kuchli shaxsiyati tufayli doim qizlarning e'tiborida bo'ladi. Lekin u hech qachon hisob-kitobsiz ish qilmas, kerakli narsaga ega bo'lgach munosabatlarni cho'zib o'tirmas edi. Hayron qolarlisi, u sevgiga ishonardi, biroq bu borada uzoq hayol surmaslikni ma'qul ko'rardi. Klayd esa mehribon, oqko'ngil, to'g'riso'z, rostgo'y bo'lishga harakat qilar, mehnatdan qochmas, lekin ko'p hollarda to'g'ri xulosa chiqara olmasligi unga ko'p pand berardi. Klayd farovon hayotni orzu qilsa-da, o'z oldiga aniq maqsad qo'ymagan edi. Atrofdagilarning u haqidagi fikri uning uchun muhim edi. Hayoti qiyin kechgani bilan u bundan ham mashaqqatli bo'lishidan doim qo'rqadi.

Frenk yaqinlarini qadrlagani bilan o'z xohish-istaklarining amalga oshishini hammasidan ustun qo'yardi. Maqsadiga erishish uchun diniy aqidalar, qonun bilan hisoblashmasdi. Atrofdagilarning fikri esa uning uchun ahamiyatsiz. Zero, umrida

qaytib ko'rmaydigan odamlarning gapi uchun o'z hayoti mazmunini tashkil qiluvchi narsalardan voz kechishni ahmoqlik hisoblar edi. Uning yana bir muhim jihati - yengilsa ham sinmasligi edi..Klayd esa odatda yordamni atrofdagilardan kutar, insoniylik fazilatlari bilan boshqalarda yaxshi taassurot qoldirardi. Frenkni kimdir hurmat qilar, yanada ko'pchilik uni yoqtirmas edi. Lekin hayotda u faqat o'ziga tayanar edi.”

4 -TOPSHIRIQ. Uilyam Goldingning “Pashshalar sultoni” romanini o'qib chiqing va quyidagi savollarga javob bering.

1. Rivoyat (pritcha) nima va uning qanday xususiyatlarini bilasiz?
2. Asardagi dengiz, gulxan, orol, to'ng'iz kallasi, ko'zoynak va boshqa detallar qanday ramziy ma'noga ega? Personajlarning ramziyligi nimalarda ko'rinadi?
3. Romanning mavzusi, undagi sosial-falsafiy ma'no nimalarda ko'rinadi? Asar nima uchun bunday nomlangan?
4. Romandagi “hayvon” kim? Asarda Ralf, Saymon, Cho'chqacha, personajlarining o'rnini qanday? Nima uchun aynan Jek orolda yetakchi bo'lishga erishdi?
5. Golding yovuzlikning asosini nimada ko'radi? Roman finalini qanday tushunasiz?

5-TOPSHIRIQ. Martin Iden sindromi terminini qanday tushunasiz?Uni asar bilan bog'lab tushuntirib berishga harakat qiling.

6-TOPSHIRIQ Quyidagi matnni o'qib savollarga javob bering. Matnda gap qaysi ijodkor haqida ketayapti? Bu ijodkor haqida to'liqroq ma'lumot bering.

“U boshlang'ich maktabni tugatib, Chikago yaqinidagi o'rta maktabda o'qishni davom ettiradi. Aynan shu dargohda Amerika va jahon adabiyoti namunalari bilan yaqindan tanishadi va kelajak haqida orzular qiladi.. Maktabni bitirib Chikagodagi Indiana universitetining jurnalistika fakultetida o'qishni boshlaydi. U o'qishini mablag' bilan ta'minlash uchun “Tribyun” gazetasida

kuryerlik, mehmonxonada xizmatchi, pochta idorasida klerklik, vokzalda yuk tashuvchi, kechalari restoranda ofitsiant va idish yuvuvchi bo'lib ishlaydi. Shu bilan birga u o'z ustida juda jiddiy ishlab, noshirlik sirlarini o'rganadi.”

“XX asr fojialari va adabiyot” keysi

Keys bayoni: XX asrda insoniyat insonparvarlikka, idrok, taraqqiyot, kollektivizm, yangilik, shaxsning cheksiz erkinligiga, texnik rivojlanishga tayangan holda ochlik va yo'qsillikni yengishga intildi. Ammo bu oqibatda insonlarning yolg'izlikka mahkum bo'lishiga, siyosiy safsatabozlikning yoyilishiga, haqiqatdan uzoqlashishga olib keldi. XX asr fojiasini ko'plab ijodkorlarning urushlarda halok bo'lishida, gunohsiz qatl qilinishi, aqldan ozish, joniga qasd qilishiyu, ijoddan yuz o'girishida ko'rishimiz mumkin. Shu mazmundagi so'zlarni nemis faylasufi T.Adorno o'zining “Zaharlangan hayot haqidagi mulohazalar” asarida (1951) shunday yozadi: “Osvensim fojialaridan so'ng she'r yozish – varvarlik. ...Bu kishining nega she'r yozish mumkin emasligini anglatadi...”

Keys savoli: XX asr jahon adabiyoti haqida sizning fikringiz qanday? Qaysi ijodkorlar va qaysi asarlar asrning mohiyatini ko'proq ochib bera olgan deb o'ylaysiz?

TEST SAVOLLARI

1. Amerika yozuvchilari nomi to'g'ri berilgan javobni toping.

- A) Balzak, Bayron, Dikkens B) Gyugo, Stendal, Jek London
S) Xeminguey, J.London, T.Drayzer D) Flober, Mark Tven, Gyote

2. “Buyuk Getsbi” romani muallifini toping.

- A) Frensis Skott Fisjerald B) Margaret Mitchell
S) Ernest Xeminguey D) Teodor Drayzer

3. “SHamollarda qolgan hislarim” romani muallifi kim?

- A) Frensis Skott Fisjerald B) Margaret Mitchell
S) Ernest Xeminguey D) Teodor Drayzer

4. Klayd Griffits qaysi asarning bosh qahramoni?

- A) “Martin Iden” romani B) “Alvido, qurol!” romani
S) “Amerika fojiasi” romani D) “Moliyachi” romani

5. Teodor Drayzerning “Amerika fojiasi” romanini o‘zbek tiliga o‘giran tarjimon kim?

- A) Ibrohim G‘afurov B) Abdulla Sher S) O‘ktam Usmonov
D) Sadriddin Salimov

6. Asl ismi Jon Cheyni bo‘lgan amerikalik mashhur yozuvchi kim?

- A) Jek London B) Mark Tven S) Ernest Xeminguey D) Teodor Drayzer

7. Jek London asarlari to‘liq berilgan javobni toping.

- A) “SHahzoda va gado”, “Adam kundaligi”, “Janna D ark”
B) “Jenni Gerxard”, “Finansist”, “Amerika fojiasi”
S) “Temir tovon”, “Martin Iden”, “Hayotga muhabbat”.
D) “Vaqt kutib turmaydi”, “Dengiz bo‘risi”, “Chol va dengiz”.

8. Asli ismi Semyuel Lengxorn Klemens bo‘lgan amerikalik yozuvchini toping.

- A) Jek London B) Mark Tven S) Ernest Xeminguey D) Teodor Drayzer

9. Amerikalik yozuvchilar to‘g‘ri berilgan javobni toping.

- A) Lope de Vega, Servantes, Dante B) Gyugo, Jorj Sand, Jek London
S) Gyote, Mark Tven, Teodor Drayzer D) Xeminguey, Mitchell, F. Skott Fisjerald

10. Teodor Drayzer romanlari to‘liq berilgan javobni toping.

- A) “Jenni Gerxard”, “Baxtiqaro Kerri”, “Istak trilogiyasi”
B) “Amerika fojiasi”, “Martin Iden”, “Temir tovon”
S) “Yankilar qirol Artur saroyida”, “Finansist”, “SHahzoda va gado”
D) “Afrikaning yashil tepaliklarida”, “Dengiz bo‘risi”, “Sirli notanish”

FOYDALANISH UCHUN ADABIYOT:

1. Hamdamov U. Qosimov A. Jahon adabiyoti. T.: 2017.
2. Mahmudov. M. Hayrat va tafakkur. -T.: 1990 .
3. Po‘latov .U. O‘zbekistonda chet el adabiyotini o‘rganishga doir. -T.: 1975.
4. Po‘latov. U. Asrlarga tutash hamkorlik. -T.: 1974 .
5. Sulaymonova F. Sharq va G‘arb. -T.: 1997 .
6. Drayzer. T. Amerika fojiasi. “G‘afur G‘ulom nashriyoti”, -T.: 1976.
7. London. J. Martin Iden. - T.: 1987.
8. Xeminguey. E. Alvido, qurol!. -T.: 1988.
9. Vse shedevri mirovoy literaturi. V kratkom izlojenii. Syujeti i xarakteri. Zarubejnaya literatura XX veka v 2 knigax. “Olimp”, AST.- M.: 1997, 832 s

MAVZU: XX ASR JAHON MODERNIZM ADABIYOTI

1 -TOPSHIRIQ. Quyidagi mavzularning biri bo'yicha ma'lumot tayyorlang.

1. X.Xessening "intelektual romanlari".
2. Frans Kafka ijodi.
3. Jeyms Joysning "Uliss" romani o'zbek tilida.

2 -TOPSHIRIQ. Frans Kafkaning "Evrilish" hikoyasini o'qib chiqing va quyidagi savollarga javob bering.

1. Muallif Gregor Zamzaning o'tmishi haqida nima ma'lumot beradi? Uning yashashdan maqsadi nima edi?
2. Nega u birdan hashoratga aylanadi? Bunday metamorfozaning yuz berishini muallif asarda izohlaganmi?
3. Qahramon ichki dunyosida ham o'zgarishlar yuz beradimi? Bu nimada ko'rinadi?
4. G.Zamzaning bunga munosabati qanday?
5. Insonning begonalashuvi mavzusi asarda qanday tasvirlanadi?
6. Zamza nega halok bo'ladi? Uning o'limi muqarrarmi?
7. Kafkani adabiyotdagi gumanizmdan voz kechgan ijodkor deyish mumkinmi?
8. Hikoyada "kichkina odam" mavzusi qanday ochib berilgan?

3 -TOPSHIRIQ. Albert Kamyuning "Begona" romanini o'qib chiqing. Asar sujetining "yuzaki ma'naviyatga ishonchsizlikka" munosabati qanday? Qahramonning jamiyat bilan to'qnashishiga sabab nima? Jamiyat Mersoni nima uchun sud qiladi? Vaqt o'tishi bilan qahramon o'zgaradimi? Romanning bunday nomlanishiga sabab nima? Kamyu fikricha "absurd inson" kim?

"Modernizm adabiyoti qanday adabiyot?" keysi

Keys bayoni: Modernizm jahondagi turli qit'a va millatlar adabiyotida mavjud bo'lgan modernistik uyushmalar, amaliy urinishlar, manifest, dastur,

nomlanishlarning tarixi deyish mumkin. Masalan, Lotin Amerikasi adabiyotida simbolizm modernizm deb atalgan bo'lsa, boshqa bir turlari (J.Joys, V.Vulf) simbolizmga yaqinroqdir. Yuqoridagilardan kelib chiqib, modernizm uslubiy jihatdan turfa xil ko'rinishda ekanligini ta'kidlamoqchimiz. Modernizm bu J.Joys, G.Stayn, F.Kafka, L.Pirandello, T.Mann, U.Folkner, B.Brext, X.L.Borxes, G.Markes, G.Grass kabi ijodkorlarning aniq modernistik matnlaridan iborat. Bularning har biri o'z holicha original bo'lib alohida o'rganishga arziydi. Har bir matnning o'z murakkab atamaları va uslubiy xususiyatlari mavjud. Misol uchun, J.Joysning "Uliss" romani naturalistik, simvolistik, avangard, postmodern uslubidagi asar sifatida o'qib tushunilishi mumkin

Keys savoli: Siz modernizm adabiyotini qanday tushunasiz? Uning qanday o'ziga xos jihatlari bor? Misollar bilan tushuntiring

"Ingliz modernizmi" keysi

Keys bayoni: Jahon modernistik adabiyotining tarkibiy qismi sanalgan ingliz modernizmi ham XX asrning 30-yillariga kelib shakllandi. XIX asr oxirlarida ijod qilgan R.Kipling, J.Golsuorsi, U.Sommerset Moem kabilar naturalistik adabiyot yangiliklariga e'tibor qaratib, ideal haqidagi tasavvurlarni saqlab qoladilar. Birinchi jahon urushi davrida insoniy qadriyatlarning qaytadan baholanishi davrida ziddiyatlar ayniqsa kuchaydi. XX asr 10-yillariga kelib U.Lyuis, E.Paund, J.Joys kabi yozuvchilar ijodi turli xil adabiy mojarolar, bahslarga sabab bo'ldi. Buning sababi bor edi. Modernist yozuvchilar nafaqat Dikkens an'alariga qarshi chiqdilar, balki kishilar ongida bo'lgan britan madaniyatining o'ziga xosligiga ishonchga shubha bildirdilar. Aynan shu davrda ingliz tili Yevropa intellektual elita tili bo'lgan fransuz tilini siqib chiqarishga erishdi. Natijada, hatto modernizm adabiyotining eng mashhur asari bo'lgan J.Joysning "Uliss" romani Parijda nashr qilindi. Ingliz modernizm adabiyoti bilan bog'liq yozuvchilar J.Konrad, U.Lyuis, V.Vulflar adabiy an'analarga qarshi chiqishni aslida maqsad qilib olmaganlar. Ularga zamondosh bo'lgan A.Jid, M.Prust, T.Mann, G.Gesselar ham ijod erkinligiga intildilar.

Keys savoli: Ingliz modernizm adabiyotini elektron manbalar yordamida o'rganing. Uning o'ziga xos jihatlarini, an'analarga qarshi chiqish nimalarda o'z aksini topganligini misollar bilan tushuntiring.

“Kafka fojiasi” keysi

Keys bayoni: Kafkani atrofdagilarga nisbatan begonalik hissi doimo qiynagan. Yozuvchi Gyunter Anders o'zining “Kafka - za i protiv” (1952) asarida shunday deb yozadi: “U yahudiy sifatida xristian dunyosiga begona edi. Yahudiy sifatida esa yahudiylarga begona edi. Nemis tilida so'zlovchi sifatida u chexlarga begona edi. Nemis tilida gapiruvchi yahudiy sifatida yahudiylarga begona edi”. Bogemiyalik sifatida to'liq avstriyalik emasdi. Ishchilarni sug'urtalash xodimi sifatida burjua emasdi, meshchanin sifatida ishchi emasdi. Xizmat ham unga hamma narsani bermasdi, chunki u o'zini yozuvchi deb his qilardi. Lekin yozuvchi emasdi, chunki uning bor kuchi oilasiga berilgandi. U o'z oilasida unga eng begona kishilardan ham begonaroqman derdi.

Keys savoli: Kafka ijodiga uning shaxsiyati, biografiyasi qanchalik ta'sir ko'rsatgan? Kafka fojiasi nimalarda ko'rinadi?

“Kafka va san'at” keysi

Keys bayoni: Yozuvchining oxirgi hikoyasi “Qo'shiqchi Jozefina, yoki sichqon xalqi” deb nomlanadi. Unda yozuvchi san'atning ijtimoiy ahamiyati haqida fikr yuritar ekan, san'atning xalq tomonidan qabul qilinishiga to'xtaladi. San'atkorlarga bo'lgan salbiy munosabatlar ularni qahrli bo'lishga, san'atidan yuz o'girishiga olib keladi. Ijodkorning taqdiri bizning dunyomizda faqat g'amgin, achinarli bo'ladi, xalq esa o'z san'atkorini osongina yo'qotib, o'z yo'lida davom etaveradi, deb hisoblaydi Kafka.

Keys savoli: Ushbu hikoyani topib o'qing. Kafkaning san'atga doir fikriga qo'shilasizmi? Javobingizni izohlang

“Otamga xat” keysi

Keys bayoni: Kafka shaxsining shakllanishida otasining o‘rni katta. Yoshligi qashshoqlikda o‘tgan bu odam keksayganda sarmoya to‘plab kichik fabrika ochadi. Ruhan tamomila o‘g‘lining aksi bo‘lgan bu odamda endilikda o‘ziga ishonch paydo bo‘ladi va uch qizi hamda yolg‘iz o‘g‘li Fransni o‘z hukmiga bo‘ysundiradi. G‘oyatda ta’sirchan tabiatli Frans unga qalban itoat etolmaydi. Biroq nafratga yo‘g‘rilgan muhabbat, uning oldida qarzdorlik, burch hissi noroziligini tashqariga chiqarishiga to‘sqinlik qiladi. Keyinchalik “Otamga xat” (1919) asarida u qalbidagi ziddiyatlarni to‘kib soladi (biroq uni otasiga jo‘natmagan). Ushbu xat Kafka iste’dodining shakllanishidagi ko‘plab ruhiy omillarni ochib beradi. Kafka dunyoqarashida ko‘zga tashlanuvchi o‘ziga nisbatan ishonchsizlik, yolg‘izlikka moyillik sababi shundadir, balki.

Keys savoli: Kafkaning “Otamga xat” asarini topib o‘qing. Kafka ruhiy dunyosiga bir nazar soling. Ta’sirchan tabiatli ijodkor fojiasini, tushkunlikka yo‘g‘rilgan asarlarining yaralish sabablarini izohlashga harakat qiling.

TEST SAVOLLARI

1. “Uliss” romani muallifini toping.

A) Emil Zolya B) Frans Kafka S) Jeyms Joys D) Gi de Mopassan

2. Do‘stiga vafotidan keyin asarlarini yoqib yuborishni vasiyat qilgan yozuvchining ismini toping.

A) Emil Zolya B) Frans Kafka S) Jeyms Joys D) Gi de Mopassan

3. “Uliss” romanini o‘zbek tiliga kim tarjima qilgan?

A) Qodir Mirmuhamedov B) Hasan To‘rabekov
S) Ibromhim G‘afurov D) Urfon Otajon

4. Qahramoni hashoratga aylanib qoluvchi mashhur hikoya va uning muallifini toping.

A) “Evrilish” Frans Kafka B) “Gobsek” Balzak
S) “Hayotga muhabbat” Jek London
D) “Chol va dengiz” E.Xeminguey

5. Modernizm adabiy oqimi vakillari sanalgan yozuvchilarni toping.

A) Shekspir, Dante, Servantes B) Balzak, Stendal, Flober
S) Gyote, Shiller, Gyugo D) J.Joys, Kafka, Kamyu

6. O‘quvchidan maxsus tayyorgarlikni talab qiluvchi, “ulkan boshqotirma” deya nom olgan, voqealari bir kunda Dublinda sodir bo‘ladigan mashhur roman nomini toping.

- A) “Rugon Makkarlar” epopeyasi B) “Uliss” romani
S) “Jarayon” romani D) “Alvido, qurol!” romani

7. J.Joysning “Uliss” asari qaysi asarga parodiya qilib yozilgan?

- A) Gomer “Iliada” B) Gomer “Odisseya”
S) “Sid haqida qo‘shiq” D) “Roland haqida qo‘shiq”

8. J.Joysning qaysi qahramoni “Odisseya”dagi Telemaxga parodiya sifatida yaratilgan?

- A) Stiven Dedalus B) Molli S) Bak Malligan D) Blum

9. Simvolizm estetikasi qayerda va qachon paydo bo‘lgan?

- A) 19- asr 70- yillarida Fransiya: B) 19- asr 50- yillarida Angliyada
S) 19- asrda Tsponiyada D) 19- asrda Germaniyada.

10. Qaysi yozuvchi tug‘ilgan va yashash joyiga ko‘ra pragalik cheh, tiliga ko‘ra nemis, tayangan madaniy an‘analariga ko‘ra avstraliyalik, millatiga ko‘ra yahudiy?

- A) Emil Zolya B) Alber Kamyu S) Frans Kafka D) Jek London

FOYDALANISH UCHUN ADABIYOT:

1. Normatova SH. Jahon adabiyoti. – T.: “Ma’naviyat”, 2008.
2. Zarubejnaya literatura XX veka. – M.: «Visshaya shkola», 2000.
3. Do‘stmuhamedov Q. «Nobel mukofotini olgan adiblar», – T.: «Ma’naviyat», 2002.
4. Adiblarning Nobel ma’ruzalari. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa uyi, 2008..
5. Jo‘rayev T. Ong oqimi. Modern. “Farg‘ona” nashriyoti, 2009.
6. Espen Xovardsxolm. Modernizm//Jahon adiblari adabiyot haqida. – T.: “Ma’naviyat”, 2010.
7. Zatonskiy D.V. Frans Kafka i problemi modernizma. -M.: «Visshaya shkola», 1992.
8. Quronov. D va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug‘ati.-T.: Akademnashr, 2010.
9. Jo‘rayev.T.Joys fenomeni. Jahon adabiyoti jurnali, 2013 yil, 7-son.
- 10.Vse shdevri mirovoy literaturi.V kratkom izlojenii. Syujeti i xarakteri. Zarubejnaya literatura XX veka v 2 knigax. “Olimp”, AST.- M.: 1997, 832 s
- 11.Hamdammov.U. Modernizm va postmodernism.-T.: 2021

BADIIY ADABIYOT:

1. Joys J. Navqiron san'atkorning siyrati. JA jurnali, 2007-yil, 3-4-son.
2. Joys. J. Uliss sarguzashtlari. I. G'afurov tarjimai. -T.: O'zbekiston, 2013.
3. Kamyu A. Begona. – T.: “Yozuvchi”, 1995.
4. Kafka F. Jarayon. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2006.
5. Kafka.F. Jarayon, Otamga xat: Roman va xat. Tarjimon Vafo Fayzulloh, — So'zboshi muallifi Xurshid Do'stmuhammad. Toshkent: «SHarq», 2015. - 416 b.
6. Kamyu. A. Isyon va san'at. “JA”, 1997/1.
7. Kamyu. A. Yon daftarchalar. “JA”, 2003/10.
8. Fromm.E. Mening e'tiqodim. “JA”, 2003/10.
9. Fromm.E. Insonning hozirgi holati. “JA”, 2000/3.
10. Sartr.J.P. Ekzistensializm to'g'risida. “JA”, 1997/5.
11. Breton.A. Syurrealizm haqida. “JA”, 2000/5.
12. Kafka.F. Otamga xat. “JA”, 2000/7-8.
13. Xolbekov.M. Modern adabiyoti: tadrij va talqin. “Tafakkur”, 2010/3.
14. Xolbekov.M. Badiiy adabiyotda modernizm tavsifi. “Yoshlik”, 2011/4.
15. www.khurshiddavron.uz. Xurshid Do'stmuhammad. Harakatdan to'xtagan jarayon qissasi. Frans Kafkaning «Jarayon. Otamga xat» kitobiga muqaddima

MAVZU: HOZIRGI ADABIY JARAYON. LOTIN AMERIKASI ADABIYOTI

1 -Topshiriq. Berilgan matnni o'qib chiqing va savollarga javob bering.

“Yolg'izlikning yuz yili” romanidagi asosiy voqea-hodisalar Xose Arkadio Buendia bir paytlar asos solgan Makondo shahrida sodir bo'ladi. Aksar munaqqidlar Makondo – Lotin Amerikasi timsoliga, uning tarixi va udumlarining ramziga aylangan deb hisoblaydilar. Makondo va roman Lotin Amerikasi bilan shunchalik chambarchas bog'langanki, chet ellik o'quvchiga bu “sehrli manzara” ko'p jihatdan tushunarsiz bo'lib qoladi. Romanda yuz yil yolg'izlikka mahkum etilgan Buendiya sulolasining tarixi shoshma-shosharlikka yo'l qo'ymasdan hikoya qilinadi. Ustiga ustak, muallif har doim har xil – mashhur dengiz qaroqchisi Frensis Dreyk davridan boshlab, turli tarixiy davrlarga murojaat qiladi. Roman sujeti qiziqarli voqealar bilan shunchalik to'yintirilganki, amalda fabula (tasvirlangan voqealar silsilasi) ni qismlarga ajratish imkoni yo'q, romanning har bir sahifasida muhim voqealar yuz beradi.

Aureliano Buendia oilasining olti avlodi hayotida sodir bo'lgan g'ayriodatiy, g'ayriahloqiy, g'ayritabiiy, aql bovar qilmas, qonunga zid voqea va hodisalarni tasvirlarkan, Markes yuksak badiiy mahorat bilan Buendiya oilasiga u yoki bu darajada mansub kishilar hayotga umid-ishonch bilan qaraydigan shodmon va sabr-bardoshli kashshof (jannat bog'idek so'lim go'sha Makondoni Aureliano Buendiya birinchi bo'lib topgan) lardan borgan sari nasli ayniyotgan razillar, yerda besaranjom-besarishta hayot kechirayotgan, arang kun ko'rayotgan devonalarga aylanayotganini ko'rsatadi. Romanda Buendiya sulolasi tarixida zamonaviy madaniyat zamirida yotgan individulizmning gurkirab yashnashi, taraqqiy etishi va zavol topishi jarayoni ko'zatiladi. Bu asoslimi, yo'qmi deguvchi savolga javobni axtarish ayni paytda vaqtni zoye ketkizish demakdir. Asarni o'qigan har bir o'quvchi o'zicha xulosa chiqaradi. Markesning aksar asarlarida ko'tarilayotgan yolg'izlik HAYOT deb nomlangan mashaqqatli yo'lda insonni muqarrar kutib turgan oxirgi, xazonrezga o'xshash hayot pallasi, uning xotimasidir. Buendiya sulolasining so'nggi vakili hayot bilan vidolashgach, birpasda ko'tarilgan to'polon shamol qurt-qumursqa va chumolilar kemirib, kukunga aylantirib tashlagan Makondoni yer yuzidan uchirib ketdi.

Savollar:

1. Makondo asarda qanday tasvirlangan?
2. Buendiya sulolasi vakillarini sanab bering
3. Romanda qanday g'ayriodatiy voqealar yuz beradi? Misollar topib keltiring
4. Romanda tasvirlangan qaysi voqea sizni o'ylantirib qo'ydi? Nima uchun?

2 -TOPSHIRIQ. Berilgan matnni o'qib, savollarga javob bering.

KAFKANING DASTXATI

Portugal tilida ijod qiluvchi braziliyalik taniqli adib Moasir Sklyar (1937-2011) qalamiga mansub "Kafkaning qoplonlari" romani jahon adabiyoti muxlislarida katta qiziqish uyg'otmoqda. Unda birinchi jahon urushi bilan bog'liq g'ayritabiiy voqealar qalamga olingan: o'smir yigitcha ma'naviy ustozining topshirig'ini bajarish uchun ming xavotirda Pragaga keladi va mashhur adib Frans

Kafka bilan uchrashadi, undan dastxat oladi. Braziliyada muhojir sifatida yashagan davrida esa, bu dastxatni uzoq yillar ko'z qorachig'idek saqlaydi. Asar qahramoni o'lim bilan yuzma-yuz kelgan hayot-mamot lahzasida buyuk yozuvchining o'sha siyoh rangda bitilgan qisqagina dastxati uning matonati va hatto g'alabasi timsoliga aylanadi...M.Sklyar 1919 yili Braziliyaga ko'chib borgan Bessarabiya muhojirlari oilasida tug'ilgan. Katoliklar gimnaziyasini bitirib, Porta-Alegri universitetida tibbiyot bo'yicha tahsil olgan. Shu universitetda tibbiyot, Braun, Texas universitetlarida portugal tili va adabiyotidan saboq beradi. Roman va hikoyalar, bolalar uchun esselar yozadi. Asarlaridagi voqealarning aksari Braziliyada yashovchi muhojirlar muhitida kechadi. "Bog'dagi Kentavr" romani AQSH milliy kitob markazi tomonidan "Eng yaxshi yuz muallif asari" sifatida e'tirof etilgan.

Savollar:

1. Moasir Sklyar haqida ma'lumot bering.
2. Uning qanday asarlarini bilasiz?
3. "Kafkaning qoplonlari" romani janri va mavzusi haqida mulohaza yuriting.
Uning kitobxonlarda katta qiziqish uyg'otishining sababi nimada deb o'ylaysiz?
4. Asar nega bunday nomlangan?

"Intellectual hordiq" keysi

Keys bayoni: XX asrning 30-yillariga kelib, intellektual hordiq chiqarishning 100 yildan ortiq hukmronligidan so'ng kinematograf uning huquqlarini tortib ola boshladi. Ikkinchi jahon urushidan so'ng esa bunga boshqa texnogen san'at turlari: televideniye, ommaviy axborot vositalari, XX asr so'ngida esa kompyuterlar ham qo'shildi. Endilikda davlat, mafkura, jiddiy adabiyot inqirozi emas, balki kitobxonlik, kitobxonni yo'qotish inqirozi haqida gapirilmoqda. Kommunikasion vositalarning ta'siri haqida fikr yuritgan amerikalik yozuvchilardan biri eng topqir yozuvchi ham gazeta xabarlariga bas kela olmaydi, deb ta'kidlaydi. Chunki ular so'zsiz haqqoniyroq, ta'sirchanroq bo'ladi.

Keys savoli:Intellectual hordiq va unga talabning kamayishi haqida, buning sabablari haqida mulohaza yuriting. Kitobxonni yo‘qotish inqirozini to‘xtatishning qanday yo‘llari bor?

“Adabiy zilzila” keysi

Keys bayoni: “Yolg‘izlikning yuz yili” romanining dastlabki 8000 adadi bir hafta ichida tarqab ketdi. Unga nisbatan “adabiy zilzila” iborasini ishlatgan perulik shoir Mario Vargas Lyosa so‘zlariga qaraganda, ushbu romanda badiiy to‘qima mahsuli – dastlab qishloq, keyinchalik shaharga aylangan Makondo – Lotin Amerikasi, uning asoschisi Aureliano Buendia o‘z avlodlari bilan esa – dunyo timsoliga aylandi. “Yolg‘izlikning yuz yili” – bu haqiqiy adabiy changalzor, sehr-jodu, majoz va afsonadan iborat fantastik mahluqot”, deb yozgandi amerikalik tanqidchi Uilyam Makferson. U Lotin Amerikasi adabiyotining durdona asari, “sehrli realizm badiiy yo‘nalishining yorqin davomi”, deya e‘tirof etildi. Roman ko‘plab xalqaro mukofotlarga sazovor bo‘ldi. Yozuvchi Nyu-Yorkdagi Kolumbiya universitetining faxriy doktori degan nomga loyiq topildi va ko‘p o‘tmay Barselonaga ko‘chib o‘tdi. Roman qisqa vaqt ichida jahonning ko‘p tillariga o‘girildi. O‘zbek kitobxoni esa roman bilan 2005 yil Nurali Qobul va Anvar Jo‘raboyev tarjimasida tanishishga musharraf bo‘ldi.

Keys savoli:“Adabiy zilzila” terminini siz qanday tushunasiz? Yana qaysi asarlarga nisbatan shunday termin qo‘llangan? Bugungi kitobxonni qanday asarlar hayratga solishi mumkin deb o‘ylaysiz?

“Markes va ekzistensializm” keysi

Keys bayoni: Ko‘pgina tadqiqotchilar Garsiya Markes ijodiga Frans Kafka, Jon Dos Passos, Virdjiniya Vulf, Alber Kamyu, Ernest Xeminguey va, ayniqsa, Uilyam Folkner ta’sirini alohida ta’kidlaydilar: “Makondoning xuddi ertaklardagidek afsonaviy dunyosi – ko‘p jihatdan Kolumbiya changalzorlariga ko‘chirilgan Yoknapatofa okrugiga o‘xshab ketadi”.Hakiqatdan ham, Markes o‘z ijodida ularning uslub va badiiy tajribalaridan mohirona foydalanadi. Uning ijodida XX asr o‘rtalarida maydonga kelgan va inson hayotining falsfiy tushuncha va

kategoriyalar tilida ifodalab bo‘lmas mutlaq noyobligini birinchi planga chiqargan falsafiy yo‘nalish – ekzistensializm (lot. existentia – mavjud bo‘lishlik) ruhidagi ohanglar – “dunyoga tashlab ketilgan”dek his etilayotgan yolg‘izlik, shaxsiy qadri-qimmatni, insoniylik xislatlarni saqlab yoki kundalik turmushning iker-chikirilariga butulay sho‘ng‘ib, unga bardosh berish yaqqol ko‘rinadi

Keys savoli: Ekzistensializm adabiyotini qanday tushunasiz? Yolg‘izlik mavzusi zamonaviy adabiyotda qanday o‘rin tutadi? Nega ijodkorlar bu mavzuga ko‘p murojaat qiladilar? Javobingizni misollar bilan tushuntiring.

TEST SAVOLLARI

1.1982 yilda Nobel mukofotiga sazovor bo‘lgan kolumbiyalik ijodkor ?

- a) Paolo Koelyo b) Gabriyel Garsia Markes
S) Xulio Kortasar D) Mario Vargas Lyosa

2. “Yolg‘izlikning yuz yili” romani muallifini toping.

- A) Paolo Koelyo B) Ernest Xeminguey
S) Gabriyel Garsia Markes D) Lui Aragon

3. “Yolg‘izlikning yuz yili” va “Buzrukning kuzi” romanlarini o‘zbekchaga o‘g‘irgan mohir tarjimon kim?

- A) Ibrohim G‘afurov B) Abdulla Sher
S) O‘ktam Usmonov D) Sadriddin Salimov

4. “Alkimyogar” romanining muallifini toping.

- a) Paolo Koelyo b) Gabriyel Garsia Markes
S) Xulio Kortasar D) Mario Vargas Lyosa

5. “Fusunkor realizm” adabiy oqimining mashhur vakilini ko‘rsating.

- A) Paolo Koelyo B) Ernest Xeminguey
S) Gabriyel Garsia Markes D) Lui Aragon

6. Paolo Koelyo romanlari to‘liq berilgan javobni toping.

- A) “Alkimyogar”, “Iblis va Prim xonim”, 5- tog’”
B) “Oshkora qotillik qissasi”, “Brida”, “Zair”
S) “G‘olibning boshi egilmaydi”, “Evrilish”, “Jarayon”
D) “Maktub”, “Portbellolik alvasti”, “Chol va dengiz”

7. Santyago ismli yigitning sayohati tasvirlangan, boshdan oxirigacha ramzlarga asoslangan, ibratli ertak deb atash mumkin bo‘lgan asarni toping.

- A) “Yolg‘izlikning yuz yili” B) “Alkimyogar”
S) “Buzrukning kuzi” D) “Iblis va Prim xonim”

8. 1947 yilda Rio de Janeyroda tugʻilgan XXI asrning mashhur yozuvchisini toping.

a) Paolo Koelyo
S) Xulio Kortasar

b) Gabriyel Garsia Markes
D) Mario Vargas Lyosa

FOYDALANISH UCHUN ADABIYOT:

1. Normatova SH. Jahon adabiyoti. – T.: “Ma’naviyat”, 2008.
2. Zarubejnaya literatura XX veka. – M.: «Visshaya shkola», 2000.
3. Karimov SH. Nemis adabiyoti tarixi. – T.: “MUMTOZ SO‘Z”, 2010.
4. Do‘stmuhamedov Q. «Nobel mukofotini olgan adiblar». – T.: «Ma’naviyat», 2002.
5. Adiblarning Nobel ma’ruzalari. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa uyi, 2008..
6. Do‘stmuhammad X. IJOD – ko‘ngil munavvarligi. – T.: “MUMTOZ SO‘Z”, 2011.
7. Jo‘rayev T. Ong oqimi. Modern. “Farg‘ona” nashriyoti, 2009.
8. Vse shedevari mirovoy literaturi. V kratkom izlojenii. Syujeti i xarakteri. Zarubejnaya literatura XX veka v 2 knigax. “Olimp”, AST.- M.: 1997, 832 s

BADIIY ADABIYOT:

1. Markes G.G. Buzrukning kuzi. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2008.
2. Koelyo P. Alkimyogar. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2004.
3. Koelyo P. Iblis va Prim xonim. “JA”, 2010/7-9.
4. Amerika hikoyalari. – T.: SMI-ASIA, 2011.
5. Braun Den. Da Vinchi siri. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2007.
6. Markes G.G. Oshkora qotillik qissasi. Yuz yil tanholikda. – T.: 1990

MUSTAQIL TOPSHIRIQLAR BANKI

1. Yevropa Uyg‘onish davri haqida ma’lumot bering.
2. Shekspir sonetlaridan birini yod oling.
3. Daniyel Defoning “Robinzon Kruzo” romani haqida ma’lumot tayyorlang.
4. Gyote ijodi haqida ma’lumot tayyorlang.”Mag‘ribu Mashriq devoni”dan parcha yod oling.
5. Viktor Gyugoning birorta asarini o‘qib chiqing. Unda romantizm adabiyotiga xos jihatlarni ko‘rsating.
6. Bayronning “CHayld Garoldning ziyorati” asaridagi romantik qahramonga xarakteristika bering.
7. Balzak ijodiga sharh tayyorlang.
8. Emil Zolyaning “Rugon-Makkarlar” epopeyasida aqcha hukmronligi mavzusi.
9. Gi de Mopassanning “Azizim” romani tahlili.

10. Teodor Drayzerning “Istak” trilogiyasida yosh yigitning hayot pillapoyalarining aks ettirilishi.
11. Gabriyel Garsia Marquesning “Yolg‘izlikning yuz yili” romani tahlili.
12. Paolo Koelyoning “Al- kimyogar” romani haqida mulohaza yuriting.
13. Zamonaviy yangi romanlardan biriga taqriz yozing

Uyga topshiriq

Quyida keltirilgan asarlardan birini yozma tahlil qiling. Tahlil qilishda badiiy asar tahlilining taxminiy sxemasidan foydalaning.

1. Molyer “Tartyuf” komediyasi
2. D. Defo “Robinzon Kruzo” romani
3. J. Swift “Gulliverning sayohatlari”
4. Shiller “Makr va muhabbat” dramasi
5. Gyote “Faust” targediyasi
6. Gyote “Yosh Verterning iztiroblari” romani
7. V. Gyugo “Klod Gyo” qissasi
8. V. Gyugo “Shohona ishrat” dramasi
9. V. Gyugo “Parij Bibi Maryam Ibodatxonasi” romani
10. Balzak “Gorio ota” romani
11. Balzak “Gobsek” qissasi
12. Stendal “Qizil va qora” romani
13. Flober “Bovari xonim” romani
14. Balzak “Sag‘ri teri tilsimi” romani
15. Dikkens “Oliver Tvistning boshidan kechirganlari” romani

BADIIY ASAR TAHLILI SXEMASI

1. Yaratilish tarixi.
2. Asar mavzusi.
3. Asarda aks etgan muammolar.
4. G‘oyaviy yo‘nalishi va emosional pafosi.
5. Janriy o‘ziga xosligi.
6. Asosiy badiiy obrazlar, ularning o‘zaro bog‘liqligi.

7. Markaziy qahramonlar.
8. Sujet va konfliktni qurishdagi o'ziga xosligi.
9. Peyzaj, portret, qahramonlarning dialog va monologlari, interyer, harakat holati.
10. Asarning nutqiy qurilishi (muallif tasviri, qahramonlar nutqi, mulohazalar).
11. Syujet va asosiy obrazlar kompozitsiyasi, shuningdek umumiy tuzilishi (badiiy asar tuzilishi, asar tarkibiy qismlari va elementlari o'rtasidagi bog'liqlik, masalan, nechta sujet chizig'i bor,, sujetdan tashqari elementlar).
12. Asarning yozuvchi ijodida tutgan o'rni.
13. Asarning jahon adabiyotida tutgan o'rni

MUSTAQIL ISH: INTELLEKT KARTA YARATISH

Mental karta aslida mindmaps deb atalib, uni mashhur olim, intellekt va tafakkur masalalari bo'yicha ma'ruzachi va maslahatchi Toni Byuzen o'ylab topgan. "Mindmaps" so'zi mind-aql, map-xarita deb tarjima qilinadi. Intellekt karta yana ong kartasi, xotira kartasi, tasavvur kartasi, fikr kartasi kabi nomlar bilan ham yuritiladi. T.Byuzen asarlarining tarjimasida ko'proq intellekt karta terminidan foydalanilgan bo'lsa, IK yaratish jarayoni esa mayndmepping deb atalgan.

IK bu informasiyani samarali tizimlashtirish, fikrlash, shaxsiy ijodiy potensialni qo'llashga imkon yaratuvchi vositadir. Kartalar asosiy g'oyalarni belgilab olishga va ular o'rtasidagi aloqani aniqlab olishda qulaylik yaratadi. IK insonda yuzaga kelgan mulohaza va fikrlar bilan ularning qog'ozga tushirilishi bosqichlari o'rtasidagi jarayondir. Vizual obrazlarni qo'llash miyaning qo'shimcha imkoniyatlarini ishlatib qisqa vaqt ichida informasiyani qayta ishlashga yordam beradi. Shu jihatdan IKni faqat o'quv materialini tizimlashtiruvchi, esda saqlab qoluvchi vosita bo'lib qolmay, balki mantiqiy va ijodiy tafakkurni rivojlantirish texnologiyasi ham deyish mumkin.

IK yaratishda 6 ta qonunga asoslaniladi. Ularga rioya qilish IKni tugal shaklda yaratishga yordam beradi. T.Byuzen bu qonunlarni 2 guruhga bo'ladi: 1. Mazmun va tasvir qonunlari 2. Struktura qonunlari. Mazmun va tasvir qonunlari deganda quyidagilar tushuniladi: emfaza (ifodalilik)ni qo'llash, tasavvurni qo'llash, fikriy aniqlikka intilish; o'z uslubini ishlab chiqish. Struktura, ya'ni IK tuzilishiga oid qonunlarga: fikriy ketma-ketlikka rioya qilish, fikrlarni raqamlab, izchil bayon qilish kiritiladi. IK ni yaratishda strelkalar, ranglar, ma'lumotlarni kodlashtirishdan foydalanishni tavsiya etiladi.

T.Byuzen yuqorida sanab o'tilgan qonunlarni yanada aniqroq tushunilishi uchun quyidagi qo'shimcha tavsiyalarni ishlab chiqdi. Jumladan, emfazani qo'llash uchun quyidagilar tavsiya qilinadi:

- doim markaziy obyektни qo'llash;
- ko'proq grafik obrazlarni ishlatish;

- markaziy obraz uchun uch yoki undan ortiq rangdan foydalanish;
- tasvirda hajmdor, bo‘rtib turuvchi harflardan foydalanish;
- sinesteziyadan (emosional-hissiy ta’sirning barcha turlarining umumlashmasi) foydalanish;
- harf, liniya, grafika kattaligini o‘zgartirib qo‘llash;
- IK elementlarini optimal joylashtirish;
- IK elementlari orasidagi masofa uyg‘un bo‘lishi.

IK ning muvaffaqiyatli chiqishi uchun yana quyidagi tavsiyalarga rioya qilish so‘raladi:

- bir liniyaga bir kalit so‘z va bosma harflarni ishlatish;
- kalit so‘zlarni liniya ustiga joylash, asosiy liniyalarni quyuqroq chizish;
- suratlar aniq bo‘lsin, qog‘ozni gorizontal shaklda chizish;
- so‘zlarni gorizontal yozish.

IKlarni bugungi kunda ta’limda barcha fanlarni o‘qitishda foydalanish mumkin. IK ta’limning turli shakllarida qo‘llanishi mumkin:

- yangi materialni o‘rganish, mustahkamlash, umumlashtirishda;
- ma’ruza, referat, ilmiy tadqiqot ishlarini yozishda;
- loyiha, prezentasiyani tayyorlashda;
- annotasiya, taqriz berishda, konspekt qilish va hokazo.

T.Byuzen standart konspektlashtirish jarayonida quyidagilar yo‘q deydi: vizual ritm, vizual tizim, rang, obrazlar (tasavvurlar) ma’lumotning grafik namoyishi, katta obyektlarni aks ettirish, makondagi oriyentir, geshtalt (yaxlit tasavvur), assosiasiya (tasavvur).

An’anaviy konspektlashtirish qiyin bo‘lib, ko‘p vaqtni oladi va samarali emas. Unda ko‘pincha kerakmas ma’lumotlar ham yoziladi. Uni o‘qishga, kalit so‘z va asosiy tushunchalarni matndan qidirib topishga yana vaqt ketadi.

IK tuzishga yordam beruvchi conceptDraw MINDMAPPER, Mind manager, MindMapper kabi qator kompyuter dasturlari mavjud bo‘lib, ular turli xil grafik, sxema, jadvallarni yaratishga yordam beradi

Demak, mayndmepping metodikasi asosini asosiy g'oya yoki tushunchani aniqlab olib, undan chiqadigan masala, g'oya, fikr va vazifalar belgilab olinadi. Bular esa aniq reja va g'oyaning amalga oshishiga xizmat qiladi. Intellek karta tuzishda quyida keltirilgan g'oyalar ketma-ketligini barcha kartalar uchun universal deyishimiz mumkin:


- Asosiy savollar: qanday? Qachon? Qayerda? Nima uchun? Kim? Nima? Qaysi?
- bo'limlar : boblar, qismlar, mavzular;
- xususiyatlar: kimningdir yoki nimaningdir tavsifi;
- tarix : voqealarning xronologik ketma-ketligi;
- struktura : shakli va ularning o'zaro bog'liqligi;
- funksiya: kimningdir yoki nimaningdir o'rni yoki vazifasi;
- Jarayon: voqea yoki hodisalarning rivojlanish bosqichlari;
- Baholash: nimadir yoki kimningdir qanchalik foydali, qadrli, qimmatli ekanligi;
- Tasniflash : obyektlarning bir-biri bilan qanday munosabatda ekanligi;
- Aniqlash: kimdir yoki nimadirning mohiyatini belgilab olish;
- SHaxslar : insonlarning xarakteri va roli;



Foydalanish uchun adabiyot:

1. Byuzen. Supermishleniye. T.Byuzen -L.: Minsk; Popurri, 2003
2. T.Byuzen. Karti pamyati. Ispolzuy svoyu pamyat na 100 %. T.Byuzen. -M.: RosmenPress, 2007
3. Myuller X. Sostavleniye mentalnix kart. Metod generasii i struktuirovaniya idey. X.Myuller -M.: Omega -L, 2007, -126 s
4. Sazanova L. A. Mentalniye karti kak sredstvo obucheniya v vuze // Perspektivi razvitiya informacionnix texnologiy. - 2016. - № 28. - S. 118.

The mind map is centered on a blue circle labeled "UYG'ONISH DAVRI ANGLIYA ADABIYOTI". It branches into four main categories:

- TARIXIY DAVRILAR** (Historical Periods):
 - TYUDORLAR SULALASI DAVRI (Tudor Dynasty Period)
 - GENOR IV DAN (From Henry IV)
 - GROLICH ELIZAVETTA DAVRIGACHA (During the reign of Elizabeth I)
- JANRLAR** (Genres):
 - EPOS (Epic): HEROYA (Heroic), ROMAN (Romance), SONET (Sonnet), FOLKLA (Folklore)
 - LIBROKA (Libretto)
 - DRAMA (Drama): TRAGEDIYA (Tragedy), KOMEDIYA (Comedy), FOLKORNIKA (Folklore)
- TEATR** (Theater):
 - SAROF TEATRI (Street Theater)
 - KUSUSIY TEATR (Court Theater)
 - JAUMIY TEATR (Public Theater)
 - KONGLODOHAR MASKAN (Globe Theatre)
 - JAMIYAT KOZGUSI (Social Awakening)
- TARAQQIYOT DAVRILARI** (Periods of Development):
 - 1-DAVRE XIV ASR OXIYR - XVI ASR BOSHIDA (1st Period: Late 14th - Early 16th Century):
 - POETSIYA (POETRY): JOHN DRYDEN (JOHN DRYDEN), JOHN MILTON (JOHN MILTON)
 - PROZESIYON (PROSE): JAMES KAY (JAMES KAY), JAMES KAY (JAMES KAY)
 - 2-DAVRE XVI ASR II YARMI (2nd Period: Second Half of 16th Century):
 - SHOIRLAR (Poets): PULP (PULP), SPENSER (SPENSER)
 - DRAMA YUZLARI (Drama Faces): SHAKSPER (SHAKSPER), SHAKSPER (SHAKSPER)
 - 3-DAVRE 1616-1642 YILLAR (3rd Period: 1616-1642):
 - TEATRLARNING YOPILISHI (Closing of Theatres)
 - UYG'ONISH DAVRI (RENAISSANCE PERIOD)
 - BEN JONSON (BEN JONSON)





JAHON ADABIYOTI FANIDAN MUSTAQIL O‘QISH UCHUN BADIY ADABIYOT RO‘YXATI

1. Xomer. Iliada. Q.Mirmuhamedov tarjimasi 1988 .
2. Xomer. Odissey. Q.Mirmuhamedov tarjimasi.-T.: G‘.G‘ulom nashr, 2012.
3. Sofokl. Shox Edip. A. Muxtor tarjimasi, Toshkent 1979.
4. Yevripid. Medey. A. Qosimov tarjimasi. Toshkent. 1985
5. Esxil. Zanjirband Prometey. A. Qosimov tarjimasi. Toshkent 1978
6. Plutarx. Saylanma. Toshkent 2006 .
7. Shekspir. Saylanma. J. Kamol tarjimasi,3 jildlik, FAN, Toshkent. 2007-2008.
8. Kun.N.A. Qadimgi Yunoniston afsona va rivoyatlari. 1-kitob. Xudolar va qahramonlar; 2-kitob. Argonavtlar. Toshkent., “Davr press” nashri 2013.
9. Dante Aligyeri “Ilohiy komediya”. A. Oripov tarjimasi,- Toshkent. 1976
- 10.Migel. De Servantes “Don Kixot” romani S. Yo‘ldoshev tarjimasi.Toshkent, 2007.
- 11.Gyote. Faust, E.Vohidov tarjimasi,-T, 1985 .
- 12.Gi de Mopassan. Azizim. Roman. –T.: 2018. I.G‘afurov tarjimasi.
- 13.Stendal. F. Qizil va qora. -T.: 1986. H.To‘rabekov tarjimasi.
- 14.Onore de Balzak. Gorio ota, -T.: 2010, S.Muhammadjonov tarjimasi.
- 15.Onore de Balzak. Gobsek,Sag‘ri teri tilsimi.-T.: 1981.
- 16.Gyustav Flober. Bovari xonim. H.Ziyoxonova tarjimasi,-T.: 1976.
- 17.CHarlz Dikens. Oliver Twistning boshidan kechirganlari. E.Mirobidov tarjimasi, -T.: 1984.
18. Jonatan Swift. Gulliverning sayohatlari. S.Yo‘ldoshev tarjimasi - T.:1974.
19. Emil Zolya. Hamal. M.Yaxyoyev tarjimasi, -T.: 1981.
- 20.Emil Zolya. Ayol baxti. Roman.M.Ismoilova tarjimasi. -T.: 2015

21. Mark Tven. Yanki va Qirol Artur. SH.Usmonxo‘jayev tarjimasi, -T.: G‘.G‘ulom nashriyoti, 1984.
22. Teodor Drayzer. Amerika fojiasi. 1-2-qism.O‘.Usmonov tarjimasi, -T.: 1976,
23. Teodor Drayzer. Jenni Gerxard. E.Nosirov tarjimasi, -T.: 1982.
24. E.Xeminguey. Quyosh baribir chiqaveradi. A.Abdumajidov tarjimasi, -T.: 1984.
25. E.Xeminguey. Chol va dengiz. I.G‘afurov tarjimasi, -T.: 1986.
26. G.Markes. Yolg‘izlikning yuz yili. I.G‘afurov tarjimasi, -T.: 2005.
27. Markes G.G. Buzrukning kuzi. Roman. T.: 2017
28. Markes G.G Ulug‘ onaning janozasi. Hikoyalar. -T.: 2018
29. Jeyms Joys. Uliss. I.G‘afurov tarjimasi, -T.: 2011.
30. Jazoir yakshanbasi. Hikoyalar to‘plami, -T.: 2010.
31. Paolo Koelo. Iblis va Prim xonim. –T.: 2012.
32. Paolo Koelyo. Alkimyogar romani.
33. Jek London. Martin Iden. Roman.
34. Jek London. Oydin vodiy. Roman. M. Ismoilova tarjimasi. -T.: 2018

MUSTAQIL ISH MAVZULARI

1. Homerning qahramonlar xarakterini yaratish mahorati (“Iliada” va “Odissey” dostonlari asosida)
2. “Iliada” dostonida tarixiylik va mifologik elementlar
3. Ezop masallarida didaktika
4. “Medeya” tragediyasi va “Argonavtlar” qissasi
5. “Ilohiy komediya”da Dante ijtimoiy-ahloqiy qarashlarining ifodalanishi
6. F.Rablening “Gargantuya va Pantagryuel” asarida sxolastik tafakkurga qarshi satirik munosabatning ifodalanishi
7. “Hamlet” Shekspir ijodining cho‘qqisi
8. “Don Kixot” asarida gumanistik g‘oyalarning targ‘ib qilinishi
9. “Gulliverning sayohatlari” romanida J.Svift fantastikasining realistik negizi

10. F.Shillerning “Qaroqchilar” tragediyasida erksevarlik g‘oyalarining ilgari surilishi
11. Gyote “Faust” asarining asosiy g‘oyasi
12. Bayron ijodida romantizimning o‘rni
13. Stendalning “Qizil va qora” romanida ijobiy qahramon muammosi
14. Balzak asarlarida umuminsoniy qadriyatlar
15. “Bovari xonim” romanida ijtimoiy-siyosiy va estetik xom xayollarning fosh etilishi
16. Pushkinning “Yevgeniy Onegin” she’riy romani realistik asar sifatida
17. F.Dostoyevksiyning “Jinoyat va jazo” romanida psixologizm
18. E.Zoyaning “Hamal” romanida mehnat va manfaat masalasi
19. Mopassan hikoyalarida psixologik tahlilning chuqurligi
20. Daniyel Defo “Robinzon Kruzo” romani tahlili.
21. Gyote “Yosh Verterninig iztiroblari” romani tahlili.
22. Gyote “Mag‘ribu Mashriq devoni” tahlili.
23. Gyote ijodiga Hofiz Sheroziy ijodining ta’siri.
24. Viktor Gyugo romanlari.
25. Viktor Gyugo “Parij Bibi Maryam ibodatxonasi” romani tahlili.
26. Gyugo “Xo‘rlanganlar” romani tahlili.
27. Gyugo “Kulayotgan kishi” romani tahlili.
28. Bayron dramlari.
29. Bayron “Don Juan” asari tahlili.
30. Bayron asarlari o‘zbek tilida.
31. Balzak “Gorio ota” romani tahlili.
32. Balzak “Gobsek” qissasi tahlili.
33. Balzak “Sag‘ri teri tilsimi” asari tahlili.
34. Balzak “Insoniyat komediyasi” asari .
35. Stendal “Qizil va qora” asari tahlili.
36. Flober “Bovari xonim” romani tahlili.
37. CHarlz Dikkens “Oliver Twist boshidan kechirganlari” asari tahlili.

38. Gi de Mopassan “Azizim” romani tahlili.
39. Frans Kafka hayoti va ijodi.
40. Jeyms Joys hayoti va ijodi.
41. Joys “Uliss” romani o‘zbek tilida.
42. Gyugo asarlari sahnada va ekranda.
43. Balzak asarlari sahnada va ekranda
44. Gyote asarlari sahnada va ekranda
45. Kafka ijodining bugungi kundagi ahamiyati.
46. Kafka ijodida modernizm.
47. Joysning “Uliss” romani va “Odisseya” dostoni o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik.
48. Mark Tven “Gekelberri Finn sarguzashtlari” romani tahlili.
49. Mark Tven ijodining o‘ziga xos jihatlari.
50. Teodor Drayzer “Baxtiqaro Kerri” romani tahlili.
51. T.Drayzer “Jenni Gerxard” romani tahlili.
52. T.Drayzer “Amerika fojiasi” romani tahlili.
53. Jek London “Shimol hikoyalari” tahlili.
54. Jek London “Martin Iden “ romani tahlili.
55. E.Xeminguey hikoyalari tahlili.
56. E.Xeminguey “Chol va dengiz” asari tahlili.
57. Markes “Yolg‘izlikninig 100 yili romani” tahlili.
58. Markes “Oshkora qotillik qissasi” asari tahlili.
59. Margaret Mitchell “SHamollarda qolgan hislarim” romani tahlili.
60. Skott Fisjeraldning “Buyuk Getsbi” romani tahlili.
61. Amerika yozuvchilari asarlari o‘zbek sahnasi va ekranida.
62. O‘rxon Pamuk hayoti va ijodi.
63. Mo Yan hayoti va ijodi.
64. Xaruki Murakami hayoti va ijodi.
65. Xaruki Murakami “SHamol qo‘shig‘ini tingla” romani tahlil.
66. Paolo Koelyo “Alkimyogar” romani tahlili.
67. Lotin Amerikasi adabiyoti vakillari ijodi.

68. J. Tolkin hayoti va ijodi.
69. J. Tolkin asarlari jahon kinoekranida.
70. Adabiyotda robinzonada janrining rivojlanishi.

JAHON ADABIYOTI FANI BO‘YICHA YAKUNIY NAZORAT

SAVOLLARI

1. Antik adabiyot tarkibi va uning o‘rganilish tarixi.
2. Qadimgi yunon mifologiyasi.
3. Qadimgi yunon mif va afsonalarining bugungi kundagi ahamiyati..
4. «Iliada» qahramonlik eposi xususiyatlari..
5. Gomerning «Odissey» dostoni haqida.
6. Yunon lirikasining turlari va ularning xususiyatlari.
7. Sofokl va uning ijodi haqida.
8. «Shoh Edip» tragediyasining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari.
9. Evripid - buyuk tragediyanavis.
10. Evripidning «Medeya» tragediyasi haqida.
11. Qadimgi Attika komediyasining asosiy xususiyatlari.
12. Aristofan komediyalari haqida.
13. Aristofan komediyalarida urush va tinchlik g‘oyalari.
14. Mil. Avval. V-IV asrlarda yunon nasriy adabiyoti.
15. Gerodot - tarixiy prozaning ilk namoyandasi.
16. Fukidid - buyuk tarixnavis.
17. Mil. Avval. V-IV asrlarda Yunonistondagi notiqlik san’ati.
18. Demosfen - notiqlik san’atining buyuk namoyandasi.
19. Aristotelning «Poetika» asari .
20. Ellinizm davrida paydo bo‘lgan falsafiy ta’limotlar.
21. Ellinizm davri yunon adabiyotining muhim xususiyatlari.
22. Yangi Attika komediyasining asosiy xususiyatlari.
23. Rim hukmronligi davrida yunon adabiyoti.
24. Plutarxning «Qo‘shaloq hayotnomalar» asarining ahamiyati.
25. Yunon va Rim mifologiyasining qiyosiy tavsifi.
26. Qadimgi Rim adabiyoti mifologiyasi.
27. Dastlabki Rim Shoiri (Livi Andronik, Gney Nevii, Kvint Enii)ning ijodi haqida.

28. Tit Mak Plavt — buyuk komediyana.
29. Mark Tulliy Sitseron ijodi haqida.
30. Qadimgi Rim adabiyotining ahamiyati.
31. Vergiliyning «Eneida» dostoni.
32. Kvint Goratsiy Flakkning ijodiy merosi.
33. Ovidiy hayoti va ijodi.
34. Ovidiy “Metamorfozalar” asarining muhim xususiyatlari.
35. Oʻrta asrlar adabiyotining muhim xususiyatlari.
36. Oʻrta asrlar ritsar-kurtuaz adabiyoti.
37. Gumanizm uygʻoniSh davri adabiyotining mafkurasi sifatida.
38. Italiya UygʻoniSh davri adabiyoti.
39. «Ilohiy komediya» dostonida gumanistik gʻoyalar.
40. Angliya UygʻoniSh davri adabiyoti.
41. Vilyam Shekspir - ingliz UygʻoniSh davri adabiyotining buyuk namoyandasi.
42. Shekspirning «Otello» tragediyasi xususiyatlari.
43. Migel de Servantes - Ispaniya UygʻoniSh davri adabiyotining buyuk vakili.
44. «Don Kixot» romanining badiiy xususiyatlari.
45. Jonatan Sviftning «Gulliverning sayohatlari» romani.
46. D. Defo «Robinzon Kruzo» romanining gʻoyaviy-badiiy xususiyatlari.
47. Emil Zolya - naturalizm adabiyoti vakili..
48. Bayron hayoti va ijodi..
49. Viktor Gyugo hayoti va ijodi.
50. Fransua Rablening “Gargantua va Pantagryuel” asari.
51. Jan Batist Moler hayoti va ijodi.
52. Gyote hayoti va ijodi.
53. Charlz Dikkens hayoti va ijodi..
54. Fridrix Shiller ijodiy merosi.
55. Frederik Stendal hayoti va ijodi
70. Gyustav Flober hayoti va ijodi
56. Flober “Bovari xonim” romani xususiyatlari

- 57. Onore de Balzak hayoti va ijodi
- 58. Jeyms Joys hayoti va ijodi.
- 59. Frans Kafka hayoti va ijodi.
- 60. Teodor Drayzer hayoti va ijodi.
- 61. Ernest Xeminguey hayoti va ijodi.
- 62. Gabriel Garsia Markes hayoti va ijodi.
- 63. Paolo Koelo hayoti va ijodi.

MUNDARIJA

Jahon adabiyoti fanidan mustaqil ta'limni tashkil etishga doir metodik tavsiyalar.....	3
Kirish nazorati.....	5
Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar. Antik adabiyot.....	6
Yevropa Uyg'onish davri adabiyoti.....	14
XVII asr Yevropa adabiyoti.....	28
XVIII asr Yevropa ma'rifatchilik adabiyoti.....	31
XIX asr Yevropa romantizm adabiyoti.....	37
XIX asr Yevropa realizm adabiyoti.....	39
XIX asr oxiri XX asr boshlari Yevropa adabiyoti.....	42
XX asr Yevropa va Amerika adabiyoti.....	45
XX asr jahon modernizm adabiyoti.....	50
Hozirgi adabiy jarayon. Lotin Amerikasi adabiyoti.....	56
Mustaqil ish. Intellekt karta yaratish.....	61
Badiiy adabiyot ro'yxati.....	67
Mustaqil ish mavzulari.....	68
Yakuniy nazorat savollari.....	71
Mundarija.....	75